

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

ABDULLAYEVA SHOXISTA SULTONBOYEVNA

5111100 – Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha

(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: UMUMTA'LIM MAKTABLARI 7-SINFIDA JAHON MUSIQA
MADANIYATI MAVZUSINI O'RGATISH USHLBLARI

ILMIY RAHBAR:

KATTA O'QITUVCHI
BOLTAEV RUSTAM

Urganch 2015-yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

"UMUMTA'LIM MAKTABLARI 7-SINFIDA JAHON MUSIQA MADANIYATI
MAVZUSINI O'RGATISH USHLUBLARI"

BAJARUVCHI:  ABDULLAYEVA SHOXISTA SULTONBOYEVNA

RAHBAR:  KATTA O'QITUVCHI BOLTAEV RUSTAM

URGANCH - 2015-YIL

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH
BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

REJASI:

Talabasi: Abdullayeva Shoxista Sultonboyevna

Universitet rektorining “_____” - sonli _____ buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Boltaev Rustam Qurbanbaevich bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: kirish, ikki bob, olti qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami) T.2002, Abdullaev R. Opera dramaturgiyasi T., 2007, Akbarov I.A. Musiqa lug'ati T.1987, Vaynkop Yu.Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov L.1976, Vladimirov V.Lagutin A. Muzikalnaya literatura M.1978, Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. vip.P. M.1988, Levin B.Chet el musiqasi musiqasi /T.G'afurbekov tarjimasi/ T.1987, Levin B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. vip.P. M.1979, Levin B.V. Istoriya zarubejnoy muziki M.1966, Mamirov K.A.Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi T.2009, Mannapov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati T., 2004, Patina S.V. Iz istorii zarubejnoy muziki M.1977, Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976, Shtern G. Instrumentalnaya muzika T.1988.

Urganch Davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Abdullayeva Shohista Sultonboyevnaning "Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning "20" 2015 yil "iyun" dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	7
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	30
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	7
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	7
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	7
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	7
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'niza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	7
Jami:		100	76

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 76 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va "yoqshi" deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: Ah

A'zolari: Abdullayeva Shohista

2015 yil "20" "iyun"

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Abdullayeva Shohista Sultonboyevna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: kirish, ikki bob, to'rt qism, xulosa va foydalangan adabiyotlardan iborat.

Tushuntirish qismi: 8 sahifadan iborat

Ilovalar soni: 9 sahifadan iborat

Mavzuning dolzarbligi: Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Vena klassik maktabi ma'rifatchilik g'oyalariga jamiki dunyoqarashlari-yu, uslub xususiyatlari va demokratik yo'nalishi bilan mahkam bog'langandir. XVIII asr yevropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari turli mamlakatlar ilg'or kishilarining faoliyatida o'ziga xos aksini topdi. XVIII asrning ikkinchi yarmi – musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri. Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilan nishonlangan yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, yetuk ustod-kompozitorlarning maydonga chiqishini talab etdi. Adabiyot va she'riyat olamida Gyote bilan Shiller, musiqa olamida Gaydn, Motsart hamda Betxoven javlon urdi. Biroq, Betxovenning ulug'vor asarlari endi kelgusi asrga mansub bo'lib qoldi; musiqa san'atining avval o'tgan taraqqiyotini umumlashtirib bergan va uni ancha oldinga surgan Gaydn bilan Motsart ijodi boshdan-oyoq XVIII asr ijodiyoti mahsulidir.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi Abdullayeva Shohista Sultonboyevnaning umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi yaxshi. Mavzuga doir adabiyotlardan o'rinli foydalangani bitiruv malakaviy ishida o'z aksini topgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Ishda bitiruvchi ilmiy etika talablariga rioya etganki, bu uning ilmga jiddiy e'tibor bilan qaraganidan dalolat

beradi. Bitiruvchi talabanning mustaqil ishni bajarish layoqati yaxshi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati yuqori. Abdullayeva Shohista tirishqoq, o'ziga talabchan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, bilim, malaka va ko'nikmalarini doimo oshirib boradi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta'lim metodlari o'quv metodlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Ish bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablarga to'la javob berdi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

Boltaev R.Q.

2015 yil “16” iyun

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: “Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari”

Malakaviy ishning hajmi 10982 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 9 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: 9

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi

Jahon musiqa madaniyati rivojida cholg'u musiqa, opera, oratoriya, vokal musiqaning barcha janrlarida chindan ham ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan XVIII asr musiqa san'atining vujudga kelishi va rivojlanishida mashhur kompozitorlarga emas, balki musiqa madaniyatining turli sohalarida uncha dong chiqarmay ishlagan arboblardan ham qatnashdilar. Biroq, san'at sohasidagi ajoyib yutuqlar, oldingi zamonlardagi kabi ijodiy yo'nalishlarning keskin kurashi vaziyatida qo'lga kiritildi.

Jamiyat hayotining g'oyaviy sohalaridagi, shu jumladan san'atdagi oqimlar kurashi konkret milliy-tarixiy shart-sharoitlarga qarab ayrim mamlakatlarda har xil tus oldi va pirovard natijada o'sha paytlarda hali yosh bo'lgan burjuaziya sinfining feodal tuzumga qarshi kurashidan iborat bo'lib, shuni bilvosita aks ettirib turdi.

Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari asosida o'quvchilarni estetik didini tarbiyalash, Ovro'pa musiqa janrlarini o'rganish, shuningdek o'sha davrda ijod qilgan kompozitorlar ijro uslubini yozuv vositalari asosida o'quvchilarga eshittirib o'rgatish asosiy maqsad va vazifalaridir. **Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati:** Tadqiqotning “Kirish” qismida

mavzuning dolzarbligi o'rganilishi, maqsad va vazifalarining, ob'ekti va predmeti, ilmiy yangiligi kabi masalalar o'z echimini topgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar: Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o'rinli foydalanilgan. Asosan, 2000 yildan keyingi ilmiy-nazariy badiiy adabiyotlar tadqiqot ishining asosini tashkil etgan. Ishda keyingi davrdagi ilmiy tadqiqot ishlaridan internet ma'lumotlaridan unumli foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolar deyarli uchramaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta'lim metodlari o'quv metodlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ishda umumta'lim maktablarida interaktiv metodlarni, pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanib texnik vositalar yoradomida dars o'tilsa, ish samaradorligi yanada oshardi.



2015 yil "16" iyun

Djumamuratova A. Sh
Urganch san'at kolleji fortepiano bo'limi mudiri

Urganch Davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Abdullayeva Shohista Sultonboyevnaning "Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning "20" 2015 yil "iyun" dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

Nº	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	7
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	30
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	7
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili, Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	7
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	7
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi, Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	7
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'nuz (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	7
Jami:		100	76

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 76 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va "yoqshi" deb baholansin.

2.

DAK raisi:

A'zolari:

2015 yil "20" "iyun"

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish 26 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi Abdullayeva Shohista Sultonboyevna

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi "Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari"

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi Boltaev Rustam Qurbanbaevich

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil "28" "may" da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch san'at kolleji fortepiano bo'limi mudiri Djumamuratova A. Sh

Kafedra mudiri: Boltaev katta o'qituvchi Nurmatova M. A.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:  dots. Ismurotov M.J.

"Tasdiqlan"

10.10.2015

dekani K. S. Niyazov

"13" dekabr 2014 y.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI 5111100 – MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI.
BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talabasi Abdullayeva Shohista Sultonboyevna

1. Ishning mavzusi: "Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari"

"13" dekabr 2014 yil universitet rektorining 11.11.14 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "18" may 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

- a) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008
- b) Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami) T.2002
- v) Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. vip.P. M.1988
- g) Druskin M. Istoriya zarubejniy muziki vip II M.1983
- d) Konen V. Istoriya zarubejnoj muziki 7-izdaniya M.1989
- e) Levin B. Chet el musiqasi /T.G'afurbekov tarjimasi/ T.1987

4. Ishning maqsadi Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari

5. Chizma materiallar ro'yxati: 409

6. Maslahatchilar: 409

Bo'limlar	Ilmiy rahbar (Maslahatchi) F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
I bob. Jahon musiqa madaniyati rivojining asosiy bosqichlari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	23.10.2014	30.10.2014
1.1. Jahon musiqa madaniyatining rivojlanishi	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.11.2014	26.11.2014
1.2. XVIII asr musiqa madaniyati va janrlari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	03.12.2014	24.12.2014
1.3. Vena klassik maktabi kompozitori V.A. Motsartning "Don Juan" operasi dramaturguyasi	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.01.2015	24.01.2015
II bob. Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	21.01.2015	02.02.2015
2.1. Umumta'lim maktablari 7-sinfida XVIII asr cholg'u musiqasi va uning ahamiyatini o'rganish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	28.01.2015	23.02.2015
2.2. Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyatini pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	07.03.2015	29.03.2015
Xulosa, kirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	04.04.2015	03.05.2015

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Urganch san'at kolleji fortepiano bo'limi mudiri Djumamuratova A. Sh

7. Ilmiy rahbar:



Boltayev Rustam Qurbonboyevich

BMI bajaruvchi talaba:



Abdullayeva Shohista Sultonboyevna

Kafedra mudiri:



Nurmatova Maya Abdullaevna

MUNDARIJA

Kirish.....	3-11
I – Bob Jahon musiqa madaniyati rivojining asosiy bosqichlari	
1.1 Jahon musiqa madaniyatining rivojlanishi.....	11-20
1.2 XVIII asr musiqa madaniyati va janrlari.....	20-25
1.3 Vena klassik maktabi kompozitori V.A. Motsartning “Don Juan” operasi dramaturguyasi.....	25-31
II - Bob Umumta’lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o’rgatish uslublari	
2.1 Umumta’lim maktablari 7-sinfida XVIII asr cholg’u musiqasi va uning ahamiyatini o’rganish.....	31- 34
2.2 Umumta’lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyatini pedagogik texnologiyalar asosida o’rganish.....	35-45
Umumiy xulosa.....	46-48
Foydalangan adabiyotlar.....	49
Ilova.....	50-59

KIRISH

Texnikaviy rivoj bosimida jadallab borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda. Shu sababli asrlar bo'yi ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan musiqiy madaniyatimizni asragan, an'anaviy qo'shiqchilik va milliy musiqa boyligimizdan foydalangan holda bugungi zamon ruhiga mos musiqalar yaratish, jahon klassik musiqa san'atidan unumli foydalanish, milliy estrada ruhida qo'shiqlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya rasman bog'chadan boshlab malaka oshirish kurslarida o'qish bilan tugallanadi. Inson kamolatida har bir davr muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa bo'yicha dars beruvchi pedagoglarning hozirgi kundagi asosiy vazifasi haqida yurtboshimiz o'z asarida shunday fikr bildiradi: "... agar insonning qulog'i engil-elpi ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam "Shashmaqom" singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilish qiyin bo'ladi... musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi".¹

Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilan nishonlangan yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni talab etadi. XVIII asrning ikkinchi yarmi – musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri.

Jahon musiqa madaniyati rivojida cholg'u musiqa, opera, oratoriya, vokal musiqaning barcha janrlarida chindan ham ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan XVIII asr musiqa san'atining vujudga kelishi va rivojlanishida mashhur kompozitorlarga emas, balki musiqa madaniyatining turli sohalarida uncha dong chiqarmay ishlagan arboblarning ham qatnashdilar. Biroq, san'at sohasidagi ajoyib

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008. 4-bet

yutuqlar, oldingi zamonlardagi kabi ijodiy yoʻnalishlarning keskin kurashi vaziyatida qoʻlga kiritildi.

XVIII asr oqimlar kurashi oʻsha davrning xarakterli xususiyati boʻldi. Bu kurash oʻsha davrdagi ijtimoiy tafakkurga-falsafa, estetika, tanqid, publitsistikaga ham zos edi. Jamiyatni demokratik asoslarida va aql-idrokka suyanib qayta qurish toʻgʻrisidagi ishga yangi ilgʻor gʻoyalarni maydonga qoʻygan. Maʼrifat davri bu gʻoyalarni jamiyatning endi umrini yashab boʻlgan feodal tabaqali negizlariga, diniy xurofot va bidʼatlarga qarshi oʻlaroq qoʻllab-quvvatladi. Maʼrifat davrining ilgʻor gʻoyalari musiqada ham oʻz aksini topdi. Oʻsha zamon uchun xarakterli boʻlgan tafakkur umumlashtirilgan musiqa obrazlarining tabiatiga ham, ularni bayon qilish va rivojlantirishga ham taʼsir koʻrsatdi².

Jamiyat hayotining gʻoyaviy sohalaridagi, shu jumladan sanʼatdagi oqimlar kurashi konkret milliy-tarixiy shart-sharoitlarga qarab ayrim mamlakatlarda har xil tus oldi va pirovard natijada oʻsha paytlarda hali yosh boʻlgan burjuaziya sinfining feodal tuzumga qarshi kurashidan iborat boʻlib, shuni bilvosita aks ettirib turdi.

Musika sanʼatda bu kurash musiqali teatr sohasida ayniqsa keskin boʻldi. Italiya, Frantsiya, Angliya va Germaniyada afsonaviy sujetlarga, qadimgi dunyo tarixi va oʻrta asr sujetlariga asoslangan, jonli qiziqishini yoʻqotib qoʻygan va aktual boʻlay qolgan “katta” operalar hali qoʻyib kelinar edi. Manzaralarni sirtdan dabdabali va serhasham qilib koʻrsatish maqsadi koʻzlangani uchun ularda badiiy va dramatik haqiqat qurbon boʻlibketardi. Bu xildagi opera asosan saroy doirasidagi aslzoda ahligaxizmat qilar, jamiyatdagi ilgʻor demokratik qatlamlarning qarashlari va didlariga mos kelmas edi. Shu operaga qarama-qarshi oʻlaroq, realistik anʼanalarni oʻz ichiga olgan demokratik opera sanʼati vujudga keldi va rivojlanib bordi.

Lekin voqelik sanʼatkorlar oldiga umrini yashab boʻlgan, eskib qolgan barcha narsalarni engish vazifasini qoʻydi, yangi mazmunni va uni ifodalashning yangi shakllarini ham gavdalandirib koʻrsatishni talab qildi.

XVIII asr oʻrtalari va ikkinchi yarmi cholgʻu musiqasida sonata-simfonik

² Levin B.Chet el musiqasi musiqasi /T.Gʻafurbekov tarjimasi/ T.1987 3-bet

printsipalari paydo bo'lishi, rivojlanib borishi va qaror topishi nishonlandi. Bundan oldingi davr cholg'u musiqasining asosiy shakli fuga bilan syuita bo'lgan bo'lsa, endi o'zi hosil qilgan shakllarning dialektikligi bilan ijtimoiy ongining birmuncha yuksak bosqichini aks ettiruvchi sonata ana shunday asosiy shakl bo'lib qoladi.

Sonata-simfonik sikli shu qadar yashovchan bo'lib chiqdiki, juda xilma-xil milliy madaniyatlari va uslublarida hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari asosida o'quvchilarni estetik didini tarbiyalash, Ovro'pa musiqa janrlarini o'rganish, shuningdek o'sha davrda ijod qilgan kompozitorlar ijro uslubini yozuv vositalari asosida o'quvchilarga eshittirib o'rgatish asosiy maqsad va vazifalaridir.

Mavzuning dolzarbligi. Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Vena klassik maktabi ma'rifatchilik g'oyalariga jamiki dunyoqarashlari-yu, uslub xususiyatlari va demokratik yo'nalishi bilan mahkam bog'langandir. XVIII asr yevropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari turli mamlakatlar ilg'or kishilarining faoliyatida o'ziga xos aksini topdi. XVIII asrning ikkinchi yarmi – musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri. Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilan nishonlangan yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, yetuk ustod-kompozitorlarning maydonga chiqishini talab etdi. Adabiyot va she'riyat olamida Gyote bilan Shiller, musiqa olamida Gaydn, Motsart hamda Betxoven javlon urdi. Biroq, Betxovenning ulug'vor asarlari endi kelgusi asrga mansub bo'lib qoldi; musiqa san'atining avval o'tgan taraqqiyotini umumlashtirib bergan va uni ancha oldinga surgan Gaydn bilan Motsart ijodi boshdan-oyoq XVIII asr ijodiyoti mahsulidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon musiqa tarixida, madaniyatida va namayondalari ijodida XVIII asrning 30-40 yillaridayoq yangi davr boshlandi, bu davr voqelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirishning progressiv metodi bo'lmish simfoniya va opera qaror topishi bilan tugallandi.

Yangidan-yangi shakl va janrlar paydo bo‘lib boradi.

Bularning shakllanish jarayonlari turli Evropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi. XIV—XVI asrlar musiqa madaniyati jahon tarixida ko‘proq “uyg‘onish davri” (renessans) nomi bilan mashhur. Bu davrga kelib G‘arbiy va Markaziy Evropadagi mamlakatlarda antik san‘atni o‘rganishga, uning yuksak namunalarini qayta tiklashga bo‘lgan harakatlar avj olgan edi. Aynan shu harakatlar bois Italiyada opera janri yuzaga keldi va rivojlana boshladi.

Ma‘rifatparvarlik g‘oyalari ustuvorligida o‘tgan XVIII asr Evropa musiqa madaniyatida jahonga mashhur “Vena klassik maktabi” shakllandi. Vena musiqa madaniyati – turmushga oid xalq musiqasi, professional kompozitorlar musiqasi, opera musiqasining ravnaq topishi Vena klassik maktabining vujudga kelishi uchun barakali va qulay bir zamin bo‘ldi, bu maktab davrning barcha ilg‘or yutuqlarini yakunlab berdi va jahon musiqa san‘atining qo‘lga kiritgan zo‘r muvaffaqiyati bo‘lib qoldi.

Vena klassik maktabining namayondalari Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Mosart qirq bitta, L.Betxoven esa to‘qqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan. Bu kompozitorlar opera san‘atini ham sermazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bunga V.A.Mosartning “Figaroning uylanishi”, “Sehrli nay”, “Don Juan”. Betxovenning “Fidelio” operalari yorqin nomunalardir.

Jahon musiqa madaniyati namoyondalarining ijodini o‘rganishda chet el musiqashunos va olimlari shuningdek, Leningrad va Moskva konservatoriyasi professor-o‘qituvchilari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Vaynkop Yu.,Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov, Vladimirov V., Lagutin A. Muzikalnaya literatura, Patina S.V. Iz istorii zarubejnoy muziki, Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka, Proxorova I. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, Levik B.V.Istoriya zarubejnoy muziki ko‘p tomlik kitoblarida ushbu mavzuni o‘rganganlar.

O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi professor-o‘qituvchilari rus va o‘zbek tilida Vena klassik maktabi kompozitorlari xaqida oliy o‘quv yurtlari maxsus

musiqa ta'lim muassasalari shuningdek, umumta'lim maktablari uchun darsliklarda yozganlar. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, bu kitob bir necha jilddan iborat. Levik B. Chet el musiqasi T.G'afurbekov tarjimasi, Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi, Abdullaev R. A. Opera dramaturgiyasi, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami), Oqilxon Ibraximov, Jamil Sidirov Musiqa 7-sinf uchun darslik, S. Bekmatov va boshqalar muallifligida Musiqa 6-sinf uchun darsliklarida Vena klassik maktabi namoyondalari ijodi, hayoti va asarlar taxlili haqida yozilgan.

Sanalgan ushbu holatlar bitiruv malakaviy ish mavzusini: "Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari" deb tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot ob'ekti: Jahon musiqa janrlarini o'rganish, shuningdek o'sha davrda ijod qilgan kompozitorlar ijro uslubini yozuv vositalari asosida o'quvchilarga eshittirib o'rgatish.

Tadqiqot predmeti: Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari

Tadqiqot maqsadi Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari o'rganish

Tadqiqot vazifalari:

1. Jahon musiqa madaniyati rivojining asosiy bosqichlari
2. Jahon musiqa madaniyatining rivojlanish tarixi
3. XVIII asr musiqa madaniyati va janrlari
4. Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari
5. Umumta'lim maktablari 7-sinfida

XVIII asr cholgʻu musiqasi va uning
ahamiyatini oʻrganish

6. Umumtaʼlim maktablari 7-sinfida
jahon musiqa madaniyatini pedagogik
texnologiyalar asosida oʻrganish

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar etib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Yangi gʻoyalar va obrazlar, yangi janr va shakllarning vujudga kelishi birinchi galda ijtimoiy-tarixiy oʻzgarishlar bilan bogʻlangan. Musiqaning odamlarning maʼnaviy boyligini shakllantirishdagi va ularni tarbiyalashdagi ahamiyati inobatga olinib, qariyb har bir mamlakatda ushbu sanʼatni yosh avlodga oʻrgatishga moʻljallangan.

Tadqiqotda qoʻllanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:

1. Analiz va sintez

2. Maxsus adabiyotlar va manbalarni oʻrganish

(Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. T.2008, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar toʻplami) T.2002, Abdullaev R. Opera dramaturgiyasi T., 2007, Akbarov I.A. Musiqa lugʻati T.1987, Vaynkop Yu.Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov L.1976, Vladimirov V.Lagutin A. Muzikalnaya literatura M.1978, Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. vip.P. M.1988, Levin B.Chet el musiqasi musiqasi /T.Gʻafurbekov tarjimasi/ T.1987, Levin B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. vip.P. M.1979, Levin B.V. Istoriya zarubejnoj muziki M.1966, Mamirov K.A.Uzluksiz taʼlim tizimida musiqa fanlarini oʻqitish masalasi T.2009, Mannapov S. Oʻzbek xalq musiqa madaniyati T., 2004, Patina S.V. Iz istorii zarubejnoj muziki M.1977, Popova

T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976, Proxorova
I. Muzikalnaya litreatura zarubejnix stran M.1987, Shtern
G. Instrumentalnaya muzika T.1988 mavzuga taaluqli
adabiyot va manbalarni o'rganish)

3. Ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash

4. Pedagogik kuzatish

Analiz va sintez uslubidan ilmiy materialni tanlash, o'rganish, tadqiqot mavzusiga doir fikr va g'oyalarni ajratish, tadqiqot xulosalarini chiqarishda foydalaniladi.

Tadqiqot mavzusiga doir asosiy ilmiy materiallar, g'oya va fikrlar mazmuni musiqiy pedagogik mahorat asoslari, pedagogik texnologiya, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish fanlarga oid maxsus adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Umumlashtirish va taqqoslash uslubi yordamida har bir o'rganilayotgan muammo yuzasidan xulosalar chiqariladi.

Pedagogik kuzatish uslubi vositasida umumta'lim maktabida pedagogik texnologiyasidan foydalanishning ilmiy - metodik asoslari o'rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:

- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlarida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari o'rganish, musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ilmiy asoslanishida;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Jahon musiqa madaniyati rivojining asosiy bosqichlarining pedagogik-psixologik jihatlarini tadbiq etishda;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Jahon musiqa madaniyatining rivojlanish tarixi bilan tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilganligida;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Jahon musiqa madaniyatining rivojlanish tarixi bilan tanishtirishning innavatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilganligida;

- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Jahon musiqa madaniyatining rivojlanish tarixi bilan tanishtirishning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash mezonini ishlab chiqishda;
- Texnikaviy rivoj bosimida jadallab borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda, ta'limda vaqt tejash hisobiga an'anaviy usulga nisbatan ko'proq material o'rgatilishi va mazmunining chuqurlashtirilishida;
- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Jahon musiqa madaniyatining rivojlanish tarixi bilan tanishtirishning metodikasini ishlab chiqilishi va metodik tavsiyalar berilishida.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar etib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Har bir davr musiqa madaniyatining o'ziga xos jihatlari bor. XVIII asr so'nggi choragiga kelib Venada musiqa ijodkorlari — kompozitorlarning o'ziga xos maktabi yuzaga kelgan edi. Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san'atini ham sermazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bunga V.A.Motsartning "Figaroning uylanishi", "Sehrli nay", "Don Juan". Betxovenning "Fidelio" operalari yorqin nomuna bo'lib, atroflicha o'rganilib kelinganligi asoslab berildi;
2. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida yuzaga jahon musiqa madaniyati namoyondalari va ularning musiqiy asarlari dunyoga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta'lim masalalari hamda ular negizida musiqay asar turlari, janr, kuy, lad va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilib, pedagogik texnologiyasidan foydalanishning metodik ta'minoti yaratildi;
3. Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari bilan tanishtirish va metodikasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi:

Kirish, 2 bob, xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Ish 55 bet (asosiy matn – 43 bet, 33 ta manba va ilova)dan tashkil topgan.

Kirish qismida tadqiqot qilinayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab berilgan, izlanish maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifa va metodlari ko'rsatilgan, ilmiy farazi qo'yilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy qimmati ichib berilgan.

Birinchi bob “Jahon musiqa madaniyati rivojining asosiy bosqichlari” mavzuida muammoning nazariy, tarixiy asoslari tahlili natijalari yoritilgan, Turli davrlardagi va bosqichlardagi musiqiy madaniyatning rivojlanishi Yevropa musiqasi namoyondalari va ularning yaratgan janr, uslublari, jihatlari va tamoyillari asoslab berilgan.

Ikkinchi bob “Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o'rgatish uslublari” mavzusi pedagogik texnologiyasidan foydalanib o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari, pedagogik texnologiyasidan foydalanish jarayoni yoritilgan.

Xulosada olib borilgan tadqiqotning asosiy yakuniy fikr va umumlashmalari bayon qilingan.

I – Bob Jahon musiqa madaniyatining rivojlanishi

1.1 Jahon musiqa madaniyati rivojining asosiy bosqichlari

Musiqa madaniyati kishilik jamiyati ma'naviy hayolida muhim o'rin tutadi. Chunki, musiqa inson qalbida go'zal tuyg'ularni uyg'otadi. uni yaxshi amallarni bajarishga chorlaydi. Shu bilan birga, musiqa, ayniqsa, “yoqimli ovoz, yuksak ta'sir kuchiga ega bo'lib, uni echish bilan inson ichki alamlardan xoli bo'ladi. Kishi har qanday qiyinchilikni, hatto ochlik, tashnalikni esidan chiqaradi. Musiqa og'ir mehnatdan keyin dam olishning eng yaxshi vositasidir. Musiqaning ta'sir kuchini hatto shundan ham bilsa bo'ladiki, yiglab turgan bola ona allasini eshitib, tinchlanadi va uxlab qoladi”³.

³ Rajabov I Maqomlar T., 2006 48-49 bet

Musiqqa madaniyatining ildizlari qadimgi davrlarda shakllangan xalq musiqqa ijodiga borib taqaladi.

Har bir xalqning uzoq asrlardan kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga bebaho ma'naviy meros bo'lib qolayotgan kuy va qo'shiqlari. lapar va yallalari, ashula va allalari bor. Goho bu ma'naviy merosni bir ibora bilan "milliy musiqqa" ham deyishadi. Chunki, bu musiqqa milliy o'zlikni anglashda, millionlab kishilar o'zlarini bir tan-u bir jondek his qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda. kasbiy bastakor va kompozitorlar ham o'zlari ijod qilayotgan doston, maqom, suvora, katta ashula yoki simfoniya va opera kabi asarlarida xalq musiqqasiga tayanadilar. Chunki, mazkur janrlarda yaratilgan xalqchil musiqqa asarlarining tinglovchiga badiiy-hissiy ta'sir kuchi ham yuqori bo'ladi.

Musiqaning odamlarning ma'naviy boyligini shakllantirishdagi va ularni tarbiyalashdagi ahamiyati inobatga olinib, qariyb har bir mamlakatda ushbu san'atni yosh avlodga o'rgatishga mo'ljallangan maxsus o'quv maskanlari ochilgan. Shuningdek, taniqli san'atkorlar ijrosida magnit tasmlari va CDga yozib olingan asarlar omma orasida targ'ib qilinadi. Musiqachilarning turli xil kontsert zallari va radio-televidenie dasturlari orqali "chiqishlari" ham hozirda odatiy bo'lib qolgan. Bularning barchasi hozirgi davr musiqqa madaniyatini tashkil qiladi.

Jahon musiqqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar etib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Bu bosqichlar quyidagi nomlar bilan yuritiladi:

1. Qadimgi davr musiqqa madaniyati.
2. O'rta asrlar musiqqa madaniyati.
3. Uyg'onish davri musiqqa madaniyati.
4. Ma'rifatparvarlik davri musiqqa madaniyati (XVIII asr).
5. XIX asr musiqqa madaniyati.
6. XX asr musiqqa madaniyati.

Har bir davr musiqqa madaniyatining o'ziga xos jihatlari bor. Masalan, eramizdan avvalgi asrlardan to V asrga qadar davom etgan musiqqa madaniyati asosan monodik (ya'ni bir ovozli) ko'rinishda bo'lgan. Bu davrda musiqqa asosan

Misr, Xitoy, Hindiston kabi qadimgi Sharq mamlakatlarida, keyinroq esa, qadimgi Yunonistonda ham o'tkazilgan turli marosimlarda ishlatilgan. Bunda ud va arfasimon torli-chertma, sibizg'a singari puflama hamda xilma-xil zarbli-urma cholg'ular keng qollanilgan.

V asrdan to XIV asrgacha davom etgan (ya'ni qadimgi dunyo bilan yangi tarix oralig'idagi davr) O'rta asrlarda musiqa madaniyati turli o'zgarishlarga yuz tutdi. Jumladan, G'arbiy Evropa mamlakatlarida musiqaning rivoji asosan cherkov musiqa madaniyatiga bog'langan edi. Aynan cherkov xorida musiqaning ko'p ovozli (polifonik) uslubi qaror topti. Shuningdek, katolik cherkovlarida organ cholg'usi ham keng qo'llanila boshlandi.

Sharq mamlakatlarida esa, aksincha, monodik uslub o'z kuchini saqlab qoldi. Musulmon olamida maqom san'ati yoyildi. Sozandalik va xonandalik san'ati rivojlandi.

XIV—XVI asrlar musiqa madaniyati jahon tarixida ko'proq “uyg'onish davri” (renessans) nomi bilan mashhur. Bu davrga kelib G'arbiy va Markaziy Evropadagi mamlakatlarda antik san'atni o'rganishga, uning yuksak namunalarini qayta tiklashga bo'lgan harakatlar avj olgan edi. Aynan shu harakatlar bois Italiyada opera janri yuzaga keldi va rivojlana boshladi.

Ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvorligida o'tgan XVIII asr Evropa musiqa madaniyatida jahonga mashhur “Vena klassik maktabi” shakllandi. Sharqda esa, maqomotning yangi tizimlari yuzaga keldi.

Sharq allomalari, shayxulniashoyixlar musiqa san'atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma'naviy quvvat bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlaganlar. Xususan, Hazrat Abu Bakr Buxoriy-Kalobodiy (vaf. 994-y.) musiqa tovushlari – nag'malarni ta'riflab, ularni “jon quvvati va ruh ozig'idurur. Agar jon nag'madan quvvat topsa, o'z maqomi sari ishrof aylaydi, ul maqom ila mashg'ul bo'lardi”, deb yozadi.

Demak, musiqa insonga ma'naviy oziqa bo'lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham ahamiyatli ekan. Chunki, ruhi tetik va barkamol kishi o'zida yaxshi insoniy

fazilatlarni mujassam eta oladi⁴.

Vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning (873—950) bu xususdagi fikri ham e'tiborlidir: “Musika ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xulqini mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Chunki tana kasal bo'lsa, ruh so'ladi. Tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi...”

Alloma Abu Ali ibn Sinoning (980— 1037) musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyati haqidagi quyidagi so'zlari ham chuqur ma'noga ega: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi esa, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi”.

Sharq mutafakkirlari musiqaning pok va go'zal muhabbat tuyg'ularini ifodalovchi ajovib xususiyatlari haqida ham hikmatli so'zlarni bizga ma'naviy meros qoldirganlar.

Bu o'rinda hazrat Alisher Navoiyning (1441—1501) so'zlari bag'oyat ta'sirlidir:

”Otashin yuzluk mug'anniyki, xilqidin muloyim surud chiqorg'ay.

Hol ahlining kuygan bag'ridin dud chiqorg'ay”⁵.

Ya'ni, ovozi chiroyli xonandaning yoqimli ashulasi muhabbat ahlining qalbini yondiradi, kuydiradi, degan ma'noni anglatadi.

XVIII asr Evropa musiqa madaniyatida jahonga mashhur “Vena klassik maktabi” shakllandi. XVIII asr ikkinchi yarmidan e'tiboran Avstriyaning poytaxti Vena shahrida musiqa madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Ma'rifatparvarlik asrining g'oyalari ustuvor bu shaharda avstriya, olmon, vengr, italyan, slavyan va boshqa xalqlarning inoq hayotini ko'rish hamda ularning milliy

⁴ Oqilxon Ibraximov, Jamil Sadirov Musika 7-sinf uchun darslik T., 2008

⁵ Alisher Navoiy “Mahbub – ul qulub”

ohanglarini tinglash mumkin edi.

Aynan ana shu ohanglar uyg'unligiga asoslangan holda XVIII asr so'nggi choragiga kelib Venada musiqa ijodkorlari — kompozitorlarning o'ziga xos maktabi yuzaga kelgan edi. Tarixda "Vena klassik maktabi" nomi bilan ham shuhrat topgan bu ijodiy maktab an'analari dastlab Yyozef Gaydn (1732— 1809) va Wolfgang Amadey Motsart (1756—1791) musiqa asarlarida qaror topib, keyinchalik ularning yosh zamondoshi Lyundvig van Betxoven (1770—1827) tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Ushbu maktab namoyandalari jahon musiqa madaniyatini sonata, kvartet, simfoniya kabi yirik cholg'u musiqa asarlari bilan boyitishga muyassar bo'ldilar.

Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodida simfoniya janrining mumtoz shakli ham uzil-kesil shakllandi va ravnaq topdi.



Y. Gaydn



V. Motsart



L. Betxoven

Shunga ko'ra bu turdagi simfoniya to'rt qismdan iborat turkumli asar bo'lib, uning ilk qismi tez sur'atda (sonatnoe allegro), ikkinchi qismi sokin va vazmin, uchinchi esa raqs (menuet, skertso) xarakterida va nihoyat yakuniy to'rtinchi qismi jo'shqin final tarzida yangragan. Odatda, bu kabi simfonik asarlarni shunga ixtisoslashgan simfonik orkestr ijro etadi.

Vena klassik maktabi namoyandalaridan Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Motsart qirq bitta, L.Betxoven esa to'qqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan.

Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san'atini ham sermazmun asarlari bilan

boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bunga V.A.Motsartning "Figaroning uylanishi", "Sehrli nay", "Don Juan". Betxovenning "Fidelio" operalari yorqin nomunalardir.

XIX - XX asrga kelib Evropa mamlakatlarida kompozitorlik ijodiyoti yanada keng yoyildi, jahonga dong'i ketgan mumtoz milliy maktablar (masalan, rus, polyak, chex, norveg, vengr va b.) yuzaga keldi. Shu bilan birga kompozitorlar ijodida boshqa san'at turlarida bo'lgani kabi turli ijodiy oqimlar ham shakllandi. Jumladan. XIX asr boshlarida Evropaning ko'pgina kompozitorlari ijodida romantizm badiiy yo'nalishi qaror topdi.

Frantsuz tilidan olingan "romantizm" so'zi keng ma'noda, san'atkorning o'zi yashab turgan hayotdan qanoatlanmay, balki orzu qilgan xayotiy voqelikni tasvirlashga intilishini anglatadi. Shu bois, aksariyat romantik kompozitorlar ijodida fantastik obrazlar, shirin xayol mavzulari muhim o'rin tutadi.



F. Shopen.



F. Shubert.



F. List.

Bu boradagi romantizm badiiy usuli avstriya kompozitori Frans Shubert, italyan kompozitorlari N.Paganini, J.Rossini, polyak kompozitori F.Shopen, nemis kompozitorlari K.Veber, F.Mendelson, R.Shuman, R.Vagner, venger kompozitori F.List, frantsuz kompozitori G.Berlioz asarlarida yorqin namoyon bo'ladi.

Bu kompozitorlar ijodida romantik ruh bilan sug'orilgan simfoniya, opera, ballada, qo'shiq va dasturli musiqa janrlari rivoj topti. Ularda xalq turmushi va tabiat manzaralari, hayotiy va fantastik (xayoliy) obrazlar badiiy ifoda etilgan. Shuni ham aytish kerakki, Evropa san'atida romantizm bilan birga yana realizm

badiiy metodi ham keng namoyon bo'lgan. Realizm — bu hayolni san'atda har qanday pardozsiz, haqqoniy aks ettirish, jamiyatdagi adolatsizliklarni keskin tanqid qilish, insonparvarlik g'oyalarini badiiy ifoda etish usulidir.



M.Musorgskiy.



J. Verdi.

Musiqqa san'atida realizm tamoyillari italyan kompozitori J. Verdi, fransuz kompozitori J.Bize, rus kompozitorlari M.Glinka, A.Dargomijskiy, M.Musorgskiy, P.Chaykovskiy, A.Borodin, N.Rimskiy-Korsakovlar ijodida kuzatiladi.



Rus klassik musiqasining asoschisi Mixail Ivanovich Glinka o'zidan boy ijodiy meros qoldirdi. Bu ma'naviy meros asosini uning qalamiga mansub “Ivan Susanin” va “Ruslan va Lyudmila” operalari, simfonik asarlari, dramatik spektaklga musiqqa, fortepiano asarlari, romans va qo'shiqlari tashkil etadi.

Kompozitorning eng katta xizmati shundan iboratki, u o'z ijodi bilan rus klassik kompozitorlik maktabining tarixiy yo'nalishini belgilab berdi va ayni paytda, jahon klassik musiqasi rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

Binobarin. M.I.Glinka rus simfonik musiqasi asoschilaridan biri hisoblanadi. Bunga uning simfonik orkestri uchun yozilgan “Vals- fantaziya”, “Kamarinskaya” fantaziyasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur “Kamarinskaya” asarida kompozitor rus xalq qo'shiqlaridan “To'yona”, “Baland tog' ortida” va “Kamarinskaya”larning

kuylarini mahorat bilan qo'llab, rang-barang kompozitsiya yaratishga muvaffaq bo'lgan.

XIX asrning so'nggi choragiga kelib G'arbiy Evropa musiqa san'atida impressionizm badiiy oqimi shakllana boshladi. Impressionizm atamasi frantsuzcha "impression" so'zidan olingan bo'lib, "taassurot" ma'nosini anglatadi. Bunda klassitsizm yoki romantizm ko'ndalang qo'ygan "hayot-mamot" masalalari emas, balki kundalik hayot manzaralari va ulardan olingan ilk taassurot badiiy ifoda etiladi.

Impressionizm oqimi dastlab K. Mone, O. Rensar, E. Dega, K. Pissaro kabi frantsuz rassomlari ijodida yuzaga kelib, so'ngra badiiy adabiyot, teatr qatorida musiqa san'atida ham o'ziga xos ravishda namoyon bo'ldi. Musiqiy impressionizm xususiyatlari frantsuz kompozitorlari— K. Debyussi, M. Ravel, italyan kompozitoriari O. Respigi, A. Kazella, ingliz kompozitoriari F. Delius, S. Skott va boshqalar ijodida namoyon bo'ldi.

XX asrning o'rtalariga kelib impressionizm badiiy oqimi barham topti.

XX asr davomida O'zbekiston musiqa madaniyatida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bunda xalq musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa rivoji bilan birga yana ko'povozli musiqaga mansub opera, sinifoniya, balet, oratoriya, xor, sonata, kinomusika, estrada kabi janrlar ham yuzaga kela boshlaganligi ko'zga tashlanadi.

Ayni paytda, Respublikada musiqiy ta'limning evropacha usuliga asoslangan maxsus o'quv yurtlari, Toshkent Davlat konservatoriyasi ochilganligini, shuningdek, musiqali drama va komediya, opera va balet asarlarini sahnalashtirishga mo'ljallangan teatr truppalari tashkil topganligini ko'ramiz.

Shu bilan birga, ko'p asrlik tarixga ega an'anaviy bastakorlik jabhasida yangi jihatlar namoyon bo'ladi, musiqiy ijodkorlikning "evropacha" ko'rinishi bo'lgan kompozitorlik sohasi esa jadal sur'atlarda shakllana boshlaydi.

Bastakorlik ijodiyoti, O'zbek musiqasining XX asrdagi rivojida bastakorlik ijodiyoti alohida o'rin tutadi. Bastakorlar, odatda, mohir sozanda, etuk xonanda bo'lib, an'anaviy musiqa turlari bo'lgan ashula, katta ashula, suvora, maqom, kuy kabi janrlarda ijod qilib kelganlar. Buni ham elga tanitganlar. Xalqimizning

sevimli san'alkorlari bo'lgan Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, Muhammadjon Mirzaev, Faxriddin Sodiqov singari bastakorlari faoliyati bunga misol bo'lishi mumkin. Zero, ularning har biri iste'dodli ijodkor bo'lish bilan birga, yana mahoratli ijrochilar hamdir.

XX asr mobaynida o'zbek bastakorlari milliy musiqamizning janrlar doirasini yangi namunalar bilan kengaytirishga ham o'z hissalarini qo'shdilar. Bu borada, ayniqsa, bastakor To'xtasin Jalilov (1996—1966) faoliyati e'tiborlidir. Ko'pgina xalqchil kuy, qo'shiq va ashulalar muallifi bo'lgan To'xtasin Jalilov Respublikamizda musiqali drama janri shakllanib, rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Jumladan, atoqli san'atkor “Halima”, “Gulsara”, “Nurxon”, “Tohir va Zuhra”, “Ravshan va Zulxumor”, “Alpomish” kabi sahna asarlariga ajoyib musiqa namunalarini ijod etgan.

Ma'luniki, simfoniya, opera, balet, oratoriya, xor kabi janrlarda ijod qiluvchi musiqachilarni “kompozitor” deb yuritishadi. Kompozitorlar o'zlari ijod etgan musiqa namunalarini. odatda, besh chiziqli nota tizimi vositasida yozib oladilar va shu asosda ularning musiqa asarlari ijro etiladi, shu tariqa avlodlarga meros qoladi.

Dastlab G'arbiy Evropada qaror topgan kompozitorlikka xos musiqiy janrlar va ijodkorlik an'analarning O'zbekiston madaniyatiga kirib kelishida rus san'atkorlarining xizmati katta bo'lgan. Bu jarayonda kompozitorlar xalq musiqa boyliklariga tayangan holda musiqali drama, opera, simfoniya, kinomusiqa va boshqa asarlar yaratishga intilganlar. Xususan, Viktor Uspenskiy. Nikolay Mironov, Sergey Vasilenko, Aleksey Kozlovskiy, Reyngold Glier, Georgiy Mushel va boshqa rus madaniyati namoyandalari o'zlarining O'zbekistonda ijod etgan asarlarida musiqiy folklor namunalaridan keng foydalanganlar. Shu asosda. masalan, V.Uspenskiy simfonik orkestri uchun “Chetire melodii narodov sredney Azii” syuitasini, A.Kozlovskiy “Lola” syuitasi va “Tanovar” baletini. R.Glier “Farg'ona bayrami” simfonik uverturasini ijod etgan. Bu hol keyinchalik o'zbek kompozitorlari — Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Doni

Zokirov, Sulaymon Yudakov, Manas Leviev, Sayfi Jalil, Ikrom Akbarov, Mirsodiq Tojiev kabi o'zbek kompozitorlari tomonidan ijodiy davom ettirildi.

Shuni ham aytish kerakki, dastlabki davrlarda musiqali drama va ayniqsa opera kabi murakkab janrlarni o'zlashtirishda kompozitorlar ijodiy hamkorlik ham qilganlar. Jumladan, 1939-yili sahnalashtirilgan ilk o'zbek operasi "Bo'ron" M.Ashrafiy va S.Vasilenko hammuallifligida. 1940-yili sahna yuzini ko'rgan "Layli va Majnun" operasi esa R.Glier va T.Sodiqovlarning hamkorligi natijasida yuzaga kelgan edi.

O'zbek kompozitorlarining musiqaviy sahna janrlarini o'zlashtirish borasida keyingi yillarda olib borgan faoliyatlari anchagina e'tiborli bo'lgan. Xususan, M.Ashrafiyning "Dilorom", S.Yudakovning "Maysaraning ishi", S.Boboevning "Hamza", I.Akbarovning "So'g'd elining qoplani", R.Hamroevning "Zulmatdan ziyo", S.Jalilning "Zebunniso" operalarida shunday natijalarni ko'rish mumkin.

1.2 XVIII asr musiqa madaniyati va janrlari

XVIII asrning 30-40 yillaridayoq musiqa tarixida yangi davr boshlandi, bu davr voqelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirishning progressiv metodi bo'lmish simfoniya va opera qaror topishi bilan tugallandi. Yangidan-yangi shakl va janrlar paydo bo'lib boradi. Bularning shakllanish jarayonlari turli Evropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi.

Yangi g'oyalar va obrazlar, yangi janr va shakllarning vujudga kelishi birinchi galda ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar bilan bog'langan edi. Feodal-absolyutistik davlatlar zaminidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi va milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi burjuaniy sinfiy hamda o'zmilliy ongi qaror topishiga, demokratik ideologiyaning rivojlanishiga olib keldi. Bu – musiqa san'ati sohasiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Musiqa san'atining demokratiklashuvi – bu o'sha davrning xarakterli xususiyatidir. XVIII asr boshiga qadar kompozitorlar o'z ijodiy kuchlarini asosan cherkovga, feodallar saroylari va opera teatrlariga qaratib keldilar. XVIII asrda

hamma joyda talaygina demokratik kontsert o'choqlari paydo bo'ladi. Orkestr kapellalari, ansambl va yakkanavozlar kontsertlarining soni ko'payadi; eng yirik Evropa poytaxtlarida aslzoda mansabdorlarning saroylaridagi kontsertlar bilan birgalikda burjuaziya korchalonligiga asoslangan, keng demokratik jamoat ommasi kiraoladigan kontsert tashkilotlari paydo bo'ladi.

Biroq, feodal-absolyutistik tartib sharoitlarida kompozitorlarning aksariyati qirollar hamda mahalliy aslzoda oqsuyalarning saroylarida kamer musiqachilar va kapelmeysterlar bo'lib xizmat qilishardi: masalan, Gaydn knyaz Estergazi qasrida, Motsart Zaltsburg arxiepiskopi huzurida ishlar edi. Har bir aslzoda mansabdor-knyaz yoki graf-boshqa oqsuyaklar bilan raqobat qilib, o'z saroyiga hammadan ko'ra ko'proq dabdaba va hasham berishga intilar edi.

Saroy ahlining ko'nglini musiqa va teatr tomoshalari bilan ochish uchun xizmat qiladigan saroy teatrlari, orkestr va xor kapellalari, kamer ansambllari ana shuni ko'zda tutar edi. Oqsuyaklarning salonlarida ishlasa ham, aksarisi past tabaqadan chiqqan kompozitorlar ko'ngil ochar, yuzaki, engil musiqani talab etuvchi ko'pchilik oqsuyaklarning qoloq did-zavqlariga qarama-qarshi o'laroq, ilg'or, demokratik va realistik san'at yaratishdi. Shunday qilib, ko'pdan-ko'p saroy orkestr kapellalari va Praga, Vena, London, Parij, Milan, Drezden, Shtutgart, Mangeym va Evropadagi boshqa poytaxtlardagi kichikroq kamer ansambllari yuksak darajadagi cholg'u musiqasi madaniyatining o'choqlari bo'ldi⁶.

Kompozitor bilan ijrochining bitta shaxsning o'zida mujassam topishi mana shu davr uchun xarakterli hodisa bo'lib qoldi. Eng buyuk kompozitorlar ko'pincha bir vaqtning o'zida o'z zamonining eng buyuk ijrochilari ham bo'ldi: Vivaldi bilan Tartini - mashhur skripkachi, Skarlatti-genial klavesinchi, Bokkerini ajoyib violonchelchi edi. Motsart klavesin bilan fortepianoni chalish va badiha qilish san'ati bilan tinglovchilarni hayratga solar edi. Odatda kapelmeysterlar o'z asarlarini o'zlari boshchilik qilayotgan kapellalar uchun yaratishardi.

Kompozitorlik amaliyoti bilan ijrochilik amaliyotining bir-biri bilan mahkam bog'lanishi, bulardan birining ikkinchisiga ta'sir ko'rsatib borishi

⁶ Levin B.V. Istoriya zarubejnoj muziki M.1966 52-bet

ijodiyotni ham, ijrochilikni ham boyitdi. Eng yirik musiqachilarning ijrochilik san'ati esa tinglovchilarga o'zining g'oyat jo'shqinligi va ijodiy zavqi bilan ta'sir ko'rsatardi.

XVIII asr cholg'u musiqasining xususiyatlaridan biri gomofonli-garmonik tuzilishning hukmronligi bo'ldi. O'sha zamon cholg'u asarlarida obrazlarning yorqin va mavzularning mazmundor chiqishiga asos bo'lgan ohanglar o'z ildizlari bilan xalq qo'shiqlari va operalarga borib taqaladi. Biroq, polifoniya gomofonli-garmonik tuzilishdagi asarlarda hamon tarkibiy qism bo'lib qolaverdi. Yirik cholg'u asarlari ko'pincha musiqa to'qimasini jonlantiruvchi muhim polifonik lavhalarga ega bo'lib qoladi.

Dastlab kamer ansambllari va orkestrga mo'ljallangan musiqa o'rtasida aytarli farq yo'q edi, lekin cholg'u musiqada mustaqil janrlar asta-sekin paydo bo'lib boradi.

“Sonatali-simfonik sikl” degan sikl bilan uning barcha turdagi janrlarining shakllanishi XVIII asr cholg'u musiqasi sohasida yuzaga kelgannovatorlik hodisasi bo'ldi ⁷.

Sonatali-simfonik sikl odatda uchta yoki to'rtta ayrim qismlardan iborat bo'lar edi.

Birinchi qism - sonatali allegro- eng muhim qismdir. U ko'pincha asrning asarning konflikt mohiyatini o'ziga jo qilgan bo'ladi. Ekspozitsiyadagi bosh va yordamchi partiyalarning mavzu kontrasti va musiqa to'qimasini juda dinamik ravishdarivojlantirib boruvchi rivojlov qismda partiyalarning jadal takokomil topib borishi ana shunga yo'l ochadi.

Ikkinchi qism lirik emotsiyalarni mujassamlantiruvchi o'y-fikrlar, xayolot olamidir. Uchinchi qism raqs janri elementini olib kiradi. Tez sur'atli, aksari xalqchil janrda bo'lgan xotima - final siklning butun kontseptsiyasidan kelib chiqadigan xulosa, yakunni o'ziga jo qiladi. Shunday qilib, sonatali-simfonik siklning yuksak badiiy birlik hosil qiluvchi hamma qismlari hayotiy reallikning turli tomonlari – dramatik, lirik, turmushga xos tomonlarini aks ettiradi.

⁷ Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976 29-bet

Yangi kompozitsiya printsiplari birmuncha yuksak darajadagi ilgʻor ijtimoiy ongga mos boʻlib tushdi. Voqelikning tipik hodisalarini musiqa sanʼatining umumlashtirilgan obrazlarida oʻziga xos tarzda aks ettirgan klassik simfonizmga sonatali-simfonik sikl hammadan koʻp rivoj topdi.

Sonatali-simfonik sikl vujudga kelishiga, albatta tarix zamin tayyorlab bergan, uning manbalari ham juda koʻp edi. Vazmin va tez surʼatli boʻlimlari bir-biri bilan almashinib boradigan italyancha va frantsuzcha operali uvertyuralarning asosida ham sikllilik printsiplari yotar edi. “Prelyudiya va fuga” polifonik sikli ham mavjud edi.

Sonatali-simfonik siklning shakllanishida tabiatan har xil boʻlib, bir-birini kontrastlab boruvchi qismlarning navbatlashib kelishidan iborat qadimgi raqs syuitasi muayyan rol oʻynadi. Frantsuz klavesinichilari Kuperen, Ramo, shuningdek, I.S. Bax, Gendel va turli mamlakatlardagi talaygina boshqa kompozitorlarning syuitalari ana shunaqa edi. Syuita qismlarining biri – menuet-keyinchalik klassik sonatali-simfonik siklning tarkibiy qismi boʻlib qoldi.

Orkestr uchun kontsertda ham boʻlgʻusi sonata siklining manbalari bor edi. Mavzuni rivojlantirib borish usullariga kelganda, bular I.S.Baxning cholgʻu asar asosida yotar edi. Shunday qilib, XVIII asr ikkinchi yarmidagi musiqa sanʼati oʻrtasida muayyan izchil bogʻlanishlar mavjud boʻlgan⁸.

Sonatali-simfonik printsiplarining shakllanish jarayonlari XVIII asr birinchi yarmidagi italyan cholgʻu musiqasida juda yaxshi seziladi.

D.Skarlatti (1685-1757)ning bir qismli sonatalari qadimgi sonata shaklidagi allegro siga oʻtishdagi oraliq hodisadan iboratdir. Shu kompozitorning soʻnggi ayrim sonatalarida ekspozitsiyaning bosh partiyasi bilan yordamchi partiyasi orasidagi tafovut endi aniq seziladi, bularning tonal nisbatlari qaror topadi, rivojlov yaxlit shaklga qilib, mustaqil ahamiyatga boʻlib qoladi. D.Skarlattining C-dur sonatasi ana shunaqa bir qadar mukammallashtirilgan sonatali allegro siga misol boʻlib xizmat qiladi.

Orkestr simfoniya qaror topishida Glyukning ustozlari J.Sammartini ijodi

⁸ Proxorova I. Muzikalnaya litreatura zarubejnix stran M.1987 20-21 bet

muhim rol o'ynadi.

Ma'lumki, XVIII asr italyan operasida uvertyura "simfoniya" deb atalar edi. Xuddi shu Sammartinining o'zi dastlab uvertyurani operadan ajratdi va uch qismdan iborat tuzilishni saqlab qolib, uni mustaqil janrga aylantirdi.

A.Vivaldi, J.Tartini, L.Lokatelli, F.Jeminyani ijodi sonata va skripka kontserti sohasida sonatali-simfoniksikl shakllanishiga zamin yaratdi. L.Bokkerini violonchel kontserti va kamer cholg'u ansambli sohasida birmuncha keyinroq juda katta rol o'ynadi.

XVIII asr italyan kompozitorlariga munosib baho berilar ekan, cholg'u musiqasi chex, nemis va avstriyalik ustodlarning ijodida yuksalib, o'zining ravnaqiga etgan, deb ko'rsatib o'tish kerak.

Badiiyat sohasidagi eng yirik ustozlar Motsartning qanday ahamiyatga ega ekanligini juda yaxshi tushunishar edilar. Chaykovskiy o'z kundaliklarining birida mana bunday deb yozgan edi: "Imonim bag'oyat komilki, Motsart musiqa bobida nafosat ko'tarila bilgan eng yuqori, oliy nuqtadir. Hayajondan, ko'nglimizda ideal deb yurgan narsaga o'zimning yaqinligimni bilganimdan yig'lashga, larzaga tushishga meni hech kim unchalik majbur qila olgan emas. Motsartning hamma jihatlari menga yoqadi, zero biz kimni chindan yoqtiradigan bo'lsak, o'sha odamning hamma jihatlari yoqtiramiz. Hammadan ko'p "Don-Juan" yoqadi, chunki musiqa nimaligini men shu asar tufayli bilib oldim." Ma'lumki, Chaykovskiyning ijodiy hayotida Motsart katta o'rinni egallagan edi⁹.

"Musiqadagi so'nmas quyosh nurining nomi "Motsart"dir, deb yozgan edi. A.Rubinshteyn "Musika va uning namoyondalari" degan kitobida. Rus musiqa san'atining atoqli arboblari – Glinka, Rimskiy-Korsakov, Glazunov, Taneev hayotida Motsart musiqasining nechog'li ulug'vor rol o'ynaganligi ma'lum.

Motsartning chet el musiqasidagi roliga har qancha baho berilsa ham ortiqcha bo'lmas. Betxoven ijodi Vena klassik maktabi yo'lida rivojlanib bordi va xiyla darajada Motsart ta'sirini sezdi. Shubert-siyomosida mujassam topgan, Vena musiqa hayoti bilan g'oyat mahkam bog'langan ilk romantizm motsartcha

⁹ Levin B.Chet el musiqasi musiqasi /T.G'afurbekov tarjimasi/ T.1987. 281-bet

uslubning xarakterli xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tadbiq etdi.

Motsartning 80-yillarda yaratilgan eng muhim operalari xronologiya bo'yicha joylashtirilsa, o'ziga xos bir simmetriya kelib chiqadi. Shu o'n yillikning boshi va oxiridan ikkita zingshpil – “Haramdan olib qochish” va “Sehrli fleyta” joy oladiki, bular rechitativlar o'rniga nutq dialoglari ishlatilgan nemischa tekstlarga yozilgan; shu davr ko'lamida italyan opera buffa an'alarini avstriyada milliy madaniyat sharoitlarida rivojlantirib boradigan, italyan tekstlarga yozilgan ikkita opera – “Figaroning uylanishi” va “Hamma shunday qiladi” joylashgan, ularning orasida Motsartning eng ulug'vor asarlaridan biri – italyan tekstga yozilgan, musiqali tragediya va komediya teatrining eng muhim xususiyatlarini payvasta qilib bir-biriga qo'shgan va psixologik musiqali drama bo'lib hisoblanadigan “Don-Juan” operasi qad ko'tarib turadi ¹⁰.

Keyingi yillar davomida musiqa san'ati Motsart musiqasidan obi hayot olib turdi. List “Figaroning uylanishi” va “Don-Juan” operalari mavzulariga mashhur fortepiano parafrazalarini yozdi. Rixard Shtraus bilan Gustav Maler ham Motsart an'alarini chetlab o'tishgan emas.

Motsart butun ijodiy umrining deyarli boshidan oxirigacha operalar yozdi. Uning ilk operalari 11-12 yoshida “Mitridat, 14 yoshida Pontiya shohi” so'nggi – “Sehrli fleyta” operasi vafot etgan yili yozilgan.

1.3. Vena klassik maktabi kompozitori

V.A. Motsartning “Don Juan” operasi dramaturgiyasi

Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san'atini ham sarmazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnodan uni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bunga V.A.Motsartning “Figaroning uylanishi”, “Sehrli nay”, “Don Juan”. Betxovenning “Fidelio” operalari yorqin nomunalardir.

V.Motsartning “Don Juan” operasining ohang dramaturgiyasi yorqin va o'ziga xosdir. Abadiy mavzuga murojaat qilgan holda kompozitor opera musiqasini

¹⁰ Popova T.V. Zarubejnaya muzika XVIII veka M.1976. 131-bet

keskin va qarama-qarshi dinamika bilan to'ldiradi. "Don Juan" sujetining mohiyati – to'qnashuvlardan tashkil topadi. Bu asarni kompozitorning o'zi hajviy fojea deb atagan. Ikkita qarama-qarshi muhit – Don Juan va qasd oluvchilar nafaqat bir-birini ta'qib etadi, balki umumiy xususiyatlarni ham o'zlarida mujassamlaydi.

Don Juan haqidagi afsonani Komandorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, Komandorning o'zi ham zid obrazdir. Bu ikki obrazning o'zaro hamjihatligi operaga yuqori falsafiy ma'no baxsh etadi. Inson taqdirini hal qiluvchi zarba g'oyasi opera mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatgan¹¹.

"Don Juan" operasining janr xususiyati o'ziga xos bo'lib, fojiaiy va hajviy asosni birlashtiradi. Bu ikki to'qnashuv operaning musiqiy dramaturgiyasida o'z aksini topdi. U Don Juan va uning atrofiga jalb etilgan qahramonlar bilan bog'liq bayramona kayfiyat hamda hayotdagi fojiaiy holatlarning qarama-qarshi qo'yilishiga asoslangan. Tabiiyki operaning intonatsion dramaturgiyasi ham kontrastlikka ega. Bu kontrastlik juda aniq ifodalangan bo'lib, kirish qismidagi uvertyuradayoq keng ochib berilgan. Uvertyurada Komandor va Don Juanning «Shampan bilan» ariyasi bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Ularning operadagi holatlari va dramaturgiyada bayon etilishi har xildir.

Komandor obrazi operani boshlab beradi va dinamizatsiyalashgan hamda ishlab chiqilgan holda asarga yakun yasaydi. Komandor operaning introduktsiyasida va oxirida ikki marta paydo bo'ladi. Lekin uning drama rivojiga ta'siri bu bilan cheklanib qolmaydi. Uning ohangli tavsiloti qasd oluvchilar obrazlarida, avvalambor Donna Anna obrazida o'ziga xos va yorqin ifodasini topadi. Shu tariqa Komandor obrazi bilan bog'liq bo'lgan ishtirokchilar tavsiloti yagona ohang muhiti bilan bog'lanadi.

Don Juan bilan bog'liq muhit esa umuman boshqa ko'rinishni tashkil etadi. Uning umumlashgan ifodaviy qiyofasi birinchi ko'rinishning «Shampan bilan» ariyasida namoyon bo'ladi. Unda operaning boshqa lavhalarida tarqoq bo'lgan va uning asta sekin paydo bo'lishini tayyorlagan barcha ohang elementlari mujassamlashgan. Bu ohang muhitlari ariyada yorqin avjga erishadi. Bu Don Juan

¹¹ Abdullayev R. Opera dramaturgiyasi T., 2007 17-bet

muhitiga o'ziga xos drammatizm va egiluvchanlikni baxsh etib, Komandorning bir me'yordagi va o'zgarmas qiyofasiga qarama-qarshi qo'yiladi.

Ohang to'qnashuvlari uvertyuradayoq namoyon bo'lib, unda melodik element (kvarta lya-re) muhim rol o'ynaydi va butun opera davomida paydo bo'lib, o'ziga xos "taqdir leytmotivi" vazifasini bajaradi. U kvarta ohangining to'liq bo'lmagan xromatik bayoni kabi turli variantlarda paydo bo'ladi. Melodik va garmonik rivojlanishning uzluksizligi musiqiy va mantiqiy rivojlanishni ta'minlaydi¹².

"Shampan bilan" ariyasi qanchalik oddiy ko'rinmasin, unda murakkab ohang rivojlanishi sezilib turadi (tantanali va gammasimon harakat, avtentik aylanmalar kuzatiladi). Ariya katta ta'sir kuchiga ega. U qahramonning maftunkorligi – uning hayotga bo'lgan muhabbatini, jo'sh urib turgan g'ayratini ochib beradi. Tovushlarning to'xtovsiz harakati shaklning uzluksiz rivojini ta'minlaydi. Uzluksizlik hissi shaklning mustaqilligi hisobidan hosil bo'ladi: bo'limlarning hajmi munosabati shunchalik oddiyki, hatto bu shaklni individual deb hisoblasa ham bo'ladi. Uning birinchi qismi 16 taktdan, rivojlanuvchi o'rtasi esa 53 taktdan iborat, uch qismli shaklda bayon etilgan repriza esa koda bilan birgalikda 91 taktni tashkil etadi.

"Shampan bilan" ariyasi shaklining dinamizatsiyasi rivojlanish tamoyilining jadallashuvi bilan bog'liq. Ariya mavzusi 8 taktli yagona tuzilishdagi davriyani tashkil etib, Presto sur'atida bayon etiladi. U dominanta-tonika garmonik doirasi asosida tuzilgan. Undagi qat'iylik har bir taktning tonika bilan boshlanishi, tez vazn bilan me'yorni saqlab turishi bilan xarakterlanadi. Bu ayniqsa boshlang'ich tovushlari tonika garmoniyasi doirasini tashkil etuvchi toq taktlarning munosabatida namoyon bo'ladi. Bitta o'zakdan butun birinchi davriya tashkil topgani kabi, butun shakl 8 taktli davriyadan asta sekin yiriklashib rivojlanadi. Bu shaklning kompozitsion mantiqi dominanta va tonika munosabati orqali kuzatib boriladi. Yirik ko'rinishda ularning asta-sekin keyingi rivoji yo'naltiruvchi omil bo'luvchi o'z muvozanatini yo'qotadi. Tonikaning 16 takti qarama-qarshi muvozanatni talab qiladi: o'rta qism dominanta muhitini rivojlantiradi: dominanta

¹² Akulov E. Opernaya muzika i stsenicheskoe deystvie. M., 1978

tonalligidagi avtentik aylanmalar, qo'shdominanta tonalligiga og'ishmalar amalga oshiriladi. Vaznning yaxlitligi umumiy to'lqin singari tez yo'naluvchi 53 taktli o'rta qismga ham ta'sir ko'rsatadi.

Avtentik kvarta Don Juanning o'ziga xos leytmavzuiga aylanadi. Ohang bo'lmagan hollarda uning ritmik asosi saqlab qolinadi, bu ritmga turli melodik ko'rinishlar singdiriladi. Mavzuning uzoq noturg'un qismdan so'ng reprizada takrorlanishi qat'iylikni namoyon etadi. Bunda garmonik tuzilmalarning o'zgarishi muhim rol o'ynaydi. Reprizaning 16 takti garmonik muvozanatni hosil qilish uchun etarli bo'lmaganligi sababli u dinamik kengayadi. Natijada dominanta organ punktiga ega bo'lgan qism, to'liq tasdiqlangan tonikali repriza va kodadan iborat uch-besh qismi shakl vujudga keladi.

"Shampan bilan" ariyasining garmonik g'oyasi, tuzilishi individual va betakrordir. Mazkur holda Motsartning o'ziga xos uslubi Vena klassik me'yorini buzishda emas, balki o'z doirasidagi ma'lum vositalar va maksimal uslubiy chegaralanishlarda namoyon bo'ladi. Don Juanning leytgarmoniysi (D-T), leytohang (fanfarali va ketma-ket kvartali harakatlar) eng oddiy vosita bo'lib, kompozitorlar tomonidan Motsartdan oldin ham qo'llanilgan. Lekin Motsart tomonidan individuallashtirilgan. Avtentik aylanma kuchining ko'p marotaba va ko'p bosqichlarda takrorlanishi keskinlikni hosil qilib, uch qismli shaklda yozilgan ariya oxirida kengayadi. Avjlilikning bunday keskinlashuvi rivojlanib boruvchi kuch taassurotini keltirib chiqaradi.

Shu tariqa Don Juan va Komandor qarama-qarshi musiqiy materialni tashkil etadi. Bu lad (birinchi holda major, ikkinchisida minor), garmonik (Don Juanda avtentik aylanmalarining ustunligi: Komandor va qasd oluvchilarda plagallik, alteratsiya, og'ishmalar faol qo'llanilgan ancha individuallashtirilgan ketma-ketligi); kuy (Don Juanda fanfaralik, diatonika, yuqoriga yo'naluvchi majorli tetraxord; Komandorda xromatik harakatlar, kamaytirilgan intervallar, pastga yo'naluvchi frigiya tetraxordi, katta intervallarga sakrashlar), ritm (Don Juanda bir maromdagi jamlangan va bo'lingan figuralar; Komandorda punktir ritm va sinkopalar) xususiyatlariga ham taalluqlidir. Don Juan va Komandor orasidagi ifodaviy

vositalar har xil bo'lsada, ular o'rtasida nozik va tabiiy bog'liqlik seziladi. Bunda avvalombor kvartaga e'tibor berish lozim bo'ladi. Nafaqat interval, balki uning ohang to'ldirilishi ham muhimdir. Bu ma'noda o'rta qismdagi «Shampan bilan» ariyasidagi yagona xromatizatsiyalashgan jumlasining Komandor va uning atrofida gilarining xarakteristikasi uchun muhim rol o'ynovchi ohangning mosligi diqqatga sazovordir. Ariya lavhasidagi yuqori ovoz kvartaning pastga yo'naluvchi xromatik to'ldirilishini, garmoniyada esa qo'shdominanta va majorning minor bilan almashuvini o'zida namoyon etadi. Xuddi shu mavzu uvertyradagi kirish qismining boshida basda yangragan edi.

Komandorning o'lim sahnasidagi xromatik mavzuning Don Juan ariyasi bayon etilgan balandlikda yangrashi yanada ko'proq o'xshashlikni beradi.

Don Juan obrazi bilan Leporello ham bog'liq bo'lib, operaning ohang dramaturgiyasida yorqin namoyon bo'lgan. Leporelloning vokal partiyasida Don Juanga xos bo'lgan kvarta va fanfarali ohanglar tez-tez uchrab turadi. Shu elementlar asosida "Ro'yxat bilan" ariyasi tuzilgan bo'lib, unda Leporello Don Juanning obrazini tasvirlab beradi. Leporello Don Juan xizmatida bo'lishiga qaramasdan u qasd oluvchilarning ohang doirasiga kiritilgan. Leporello ariyasida (№21) Don Juan va qasoskorlar ohang doirasining qarama-qarshi kontrast mavzuiy elementlari qo'shib ketadi. Don Juanning ohang doirasi bilan Donna Elviraning xarakteristikasi ham bog'liq bo'lib, u ham bosh qahramonning qarshilari qatoriga kiradi. Uning partiyasida Don Juan uchun xos bo'lgan fa-si bemol doirasidagi kvartali harakatlar uchraydi. Shunisi qiziqki, bitta kvartali ohang, Elvira partiyasida vaziyatdan kelib chiqqan holda turli mazmunni kasb etadi. Bu ohang ham hayratlanish, ham hayajonni, ham Don Juanning sevgisiga bo'lgan umidni ifodalaydi. Bu qirralar Donna Elvira obrazini boyitadi. Keyingi qasoskor shaxs – Donna Anna bo'lib, u ham Donna Elvira singari Don Juan obrazi bilan bog'liq. Kvarta leyntinterval bu personajlar munosabatini ochib berishda Motsart tomondan juda original qo'llanilgan¹³.

Kvarta intervali 2 ta muhitni umumlashtiradi va ajratadi. Don Juan va Donna

¹³ Abdullayev R. Opera dramaturgiyasi T., 2007 20-bet

Annaning birinchi sahnasi boshidagi Donna Annaning Iya-re kvartasi Don Juanning fa-si bemol kvartasiga qarshi qo'yiladi. Bu taqqoslanishda keyingi rivojlanishning butun asosiy tuziluvchi obrazli va musiqiy g'oyasi o'z ifodasini topadi. Shu bilan bog'liq holda operaning tonal rejasi maqsadga intilishni kasb etib, unda D-dur, si bemol minor, B-dur o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

BIRINCHI BOB YUZASIDAN XULOSA

Musika madaniyati kishilik jamiyati ma'naviy hayolida muhim o'rin tutadi. Chunki, musika inson qalbida go'zal tuyg'ularni uyg'otadi. uni yaxshi amallarni bajarishga chorlaydi.

Har bir xalqning uzoq asrlardan kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga bebaho ma'naviy meros bo'lib qolayotgan kuy va qo'shiqlari. lapar va yallalari, ashula va allalari bor. Goho bu ma'naviy merosni bir ibora bilan "milliy musika" ham deyishadi. Chunki, bu musika milliy o'zlikni anglashda, millionlab kishilar o'zlarini bir tan-u bir jondek his qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda. kasbiy bastakor va kompozitorlar ham o'zlari ijod qilayotgan doston, maqom, suvora, katta ashula yoki simfoniya va opera kabi asarlarida xalq musiqasiga tayanadilar. Chunki, mazkur janrlarda yaratilgan xalqchil musika asarlarining tinglovchiga badiiy-hissiy ta'sir kuchi ham yuqori bo'ladi.

Jahon musika madaniyati shakllanib, to hozirga qadar etib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi Har bir davr musika madaniyatining o'ziga xos jihatlari bor XVIII asr Evropa musika madaniyatida jahonga mashhur "Vena klassik maktabi" shakllandi.

Tarixda "Vena klassik maktabi" nomi bilan ham shuhrat topgan bu ijodiy maktab an'analari dastlab Yyozef Gaydn (1732— 1809) va Volfgang Amadey Motsart (1756—1791) musika asarlarida qaror topib, keyinchalik ularning yosh zamondoshi Lyundvig van Betxoven (1770—1827) tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Ushbu maktab namoyandalari jahon musika madaniyatini sonata, kvartet,

simfoniya kabi yirik cholg‘u musiqa asarlari bilan boyitishga muyassar bo‘ldilar.

XX asr davomida O‘zbekiston musiqa madaniyatida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunda xalq musiqasi, an‘anaviy kasbiy musiqa rivoji bilan birga yana ko‘povozli musiqaga mansub opera, sinfoniya, balet, oratoriya, xor, sonata, kinomusiqa, estrada kabi janrlar ham yuzaga kela boshlaganligi ko‘zga tashlanadi.

XVIII asrning 30-40 yillaridayoq musiqa tarixida yangi davr boshlandi, bu davr voqelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirishning progressiv metodi bo‘lmish simfoniya va opera qaror topishi bilan tugallandi. Yangidan-yangi shakl va janrlar paydo bo‘lib boradi. Bularning shakllanish jarayonlari turli Evropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi.

II – Bob Umumta’lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyati mavzusini o‘rgatish uslublari

2.1 Umumta’lim maktablari 7-sinfida XVIII asr cholg‘u musiqasi va uning ahamiyatini o‘rganish

Asrlar davomida cholg‘u musiqa xizmat qilish xususiyatini saqlab kelgan, cholg‘u musiqa turli hayotiy hodisalarda etakchi bo‘lib, tantanali vaziyatlar, motam marosimlarda, shahar va saroy bazmlarida va ovga chiqishlarda etakchilik qilgan.

Evropa cholg‘u musiqasi tarixdan ma’lumki, vokal musiqadan keyin rivoj topgan. Lyutnya, gitara va mandolina cholg‘usi klassik cholg‘u musiqa rivojida katta ahamiyat kasb etgan. XVIII asrga kelib syuita janri rivoj topgan, ariya p’esa janrlari shakllangan. Keyinchalik XIX asrga qadar insonning ichki kechinmalarini chuqur ifodalash uchun “kuysiz qo‘shiq” janri kompozitorlar ijodidan o‘rin egallagan.

Fortepiano uchun 48 ta “kuysiz qo‘shiq” yaratgan kompozitor Mendelson bo‘lib ular turli nomlar bilan nomldanadi. “Alla”, “Bahor”, “Charx”, “Venetsiya gondelerining qo‘shig‘i”¹⁴.

Bu janrda keyinchalik P.Chaykovskiy ham “Yil fasllari” to‘plamini yaratgan. Bu bir qismli p’esalar nafaqat kollejlar, musiqa maktablar yoki oliy

¹⁴ Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976 27-bet

dargohlarda ijrochilari repertuarlaridan o‘rin egallab turli kontsert va ko‘rik-tanlovlarda ijro etiladi.

“Yil fasllari” deb nomlangan bir qismli cholg‘u asarlari to‘plamida “Boychechak”, “Xirmon yig‘uvchi qo‘shig‘i”, “Kuz qo‘shig‘i”, “Qushcha qo‘shig‘i” kabi nomlangan p’esalar bor. Shunga o‘xshash asarlardan S.Raxmaninovning “Melodiya” asarini aytish mumkin.

Cholg‘u musiqaga oid Shopen, Shuman, Grigning “Alla”larini, Shopen, F.List, P.Chaykovskiyning gondeler- (kemachi) qo‘shiqlarini aytib o‘tish mumkin.

Serenada – cholg‘u asar bo‘lib, ochiq osmon ostida ijro etiladi. XVIII asrda engil lirik kayfiyatdagi siklli asarlarni – serenada deyishgan. Gaydn, Motsart, Betxoven shu janrda ijod qilishgan.

Ballada – dramatik va qahramoniy xarakterga ega cholg‘u asar. Bu cholg‘u janr asoschisi F.Shopen. Uning 4 ta balladasi dunyo musiqa durdonalari hisoblanadi. Shopendan keyin fortepiano balladasi janrija F.List, I.Brams, A.Dvorjak murojaat etganlar.

Naktyurn – bu janr kuychan xarakterda bo‘lib, tungi musiqa deb hisoblanadi. XVIII asr torli va puflama cholg‘ular ansambli ijro etadigan engil ko‘ngilochar xarakterdagi p’esalar to‘plamiga aytilgan va naktyurnlar ham ochiq havoda osmon ostida ijro etilgan. Naktyurn janrida ijod etgan kompozitorlardan Fild, Fiopen, M.Glinka, F.List, A.Grig, P.Chaykovskiy o‘ziga xos ohanglar jihatdan naktyurnlar rang-barang bo‘lib, ko‘pincha lirik xarakterga ega bo‘ladi. Shunday asardan F.Shopenning do minor (№13) mashhur naktyurni betakror ohang va murakkabliklar asosida yozilgan ¹⁵.

Etudlar – bu janr turli davrlarda turlicha xarakterni kasb etgan XVIII asrgacha etud deb mashq turini bildirgan va cholg‘u musiqada janr sifatida alohida e’tiborga ega emas edi. Lekin keyinchalik etud janri murakkab bir qismli cholg‘u musiqasi sifatida kompozitorlar ijodidan o‘rin egalladi. Kontsert etudlari tushunchasi badiiy obrazni ifodalab beruvchi janr bo‘lib, asosan, Shopen ijodida sakson darajaga ko‘tarildi. F.Listning simfonik etudlari, Shuman etudlari, “Etud-

¹⁵ Vaynkop Yu.Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov L.1976 125-bet

kartina” S.Raxmaninovning bu janrdagi ijodini aytish mumkin.

Mashhur skripkachi N.Paganini etudlaridan “Ov”, “Kampinella”, “Qo‘ng‘iroqchalar” bo‘lib, ularni Paganini “kapriz” deb nomlagan¹⁶.

Prelyudiya va eksrompt – bir vaqtlari prelyudiya deb qo‘shiqdan oldin ijro etiladigan musiqaga aytishgan. Lyutnya yoki organ keyinchalik klavesin cholg‘usida ijro etilgan. XVII-XVIII asrda bu xususiyat saqlanib qoldi. I.S.Bax ijodida prelyudiya va fugalari janr sifatida qo‘llanilgan. Shopen ijodiga mansub 24 prelyudiyasi o‘zgacha yangi shakl va janr bo‘lib yakunlangan musiqiy-badiiy asar sifatida musiqa olamiga kirib keldi. Prelyudiyalarning yangi turi turli kompozitorlar ijodida davom etdi.

Eksrompt – janri ham tugal xarakterga ega shakl bo‘lib, Shubert, Shopen, Balakirev, Chaykovskiy ijodida gullab yashnadi.

Vena klassik maktabi etuk simfonizmining asosiy uslublari shakllanishi jarayonida Gaydnning ilk simfoniylari manegimli ustozlarning simfoniylari bilan bir qatorda, endi muhim xalqa bo‘lib qolgan davrga taalluqlidir. Motsartning barcha simfoniylari mavjud bo‘lgan, yosh Betxoven esa fortepiano sonatalari va kamer ansambllarida o‘z simfonik tafakkuri printsiplarini ishlab chiqib, Birinchi simfoniyasini yaratishga yaqinlashib qolgan chog‘da Gaydnning keyingi simfoniylari yozilgan. Shunday qilib, Gaydn simfoniylari ulug‘ kompozitor ijodiy yo‘lini o‘rganish uchungina emas, balki umuman, XVIII asr klassik simfonizmining shakllanish va rivojlanish jarayonini tushunib olish uchun ham diqqatga sazovordir.

Gaydnning ilk simfoniylari mohiyat e‘tibori bilan olganda shu simfoniylar bilan bir vaqtda yozgan kamer musiqalaridan hech bir farq qilmaydi va o‘sha zamon uchun rasm bo‘lgan turmushga oid xursandchilik janrlari doirasidan nariga o‘tmaydi. Obrazlar va his-tuyg‘ularning birmuncha chuqur dunyosini ifoda etuvchi asarlari 70-yillardagina paydo bo‘ladi.

Ilk simfoniylari orasida 1772 yili yozilgan va mazmuni, obrazlarining doirasi jihatidan ham, kompozitsion tuzilishi jihatidan ham keskin ajralib

¹⁶ Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976 32-bet

turadigan “Xayrlashuv simfoniyasi” alohida diqqatga sazovordir.

Simfoniya siklga xos to‘rtta qism o‘rniga bu simfoniya beshta qism bo‘lib, so‘nggi qismi muayyan va g‘alati bir maqsad bilan qo‘shimcha qilib kiritilgan; uni ijro etish paytida, Gaydn rejasiga ko‘ra, sozandalar navbati bilan shamlarni o‘chirib, o‘z asboblarni yig‘ishtirishlari va chiqib ketishlari kerak edi – avvaliga birinchi goboy bilan ikkinchi valtorna, so‘ngra ikkinchi goboy bilan birinchi valtorna chiqib ketar edi va hokazo; simfoniyaning ikkita skripkachi poyoniga etkazar edi. Bu aftidan, simfoniksiklning vazmin sur‘atli xotima bilan tugallanishiga birinchi misoldir.

“Xayrlashuv simfoniyasi” da ilk simfoniyalarga xos bo‘lgan ko‘ngil ochar divertisment musiqasiga endi o‘rni qolgan edi. Unda Motsart va hatto Betxoven musiqasining hayajonga soluvchi sahifalariga yaqin turadigan hayajonga soluvchi sahifalariga yaqin turdagina hayajonli-ta’sirchan obrazlar hukmronlik qiladi. XVIII asr simfonik musiqasida g‘oyat darajada kam uchraydigan fiss-moll tonallik ham diqqatini o‘ziga jalb qiladi.

Biroq, Gaydn simfonizmining eng yuksak yutug‘i 12 ta London simfoniylaridir. Bittasini hisobga olmaganda bularning hammasi major tonalliklarda yozilgan. Simfoniya va yakka soz kontsert janrlari Gaydn dan oldin ham mavjud bo‘lgan, lekin Evropa simfonizmi endigina rivojlanib kelayotgan davrda Gaydn ijodi uning cho‘qqilaridan biri bo‘ldi.

XVIII asrda cholg‘u musiqasining yangi janrlari va shakllari yaratildi. Siklli miniatura cholg‘u p’esalar janri o‘z tarkibiga umumlashtirilgan poetik fikrni olib boruvchi asarlar asosida yaratilgan. Ko‘rsatilib o‘tilgan janrlar betakror asar bo‘lib, cholg‘u musiqaga xos bo‘lgan tarkibni yanada boyitdi va jahon musiqa madaniyatida betakror o‘rin egalladi.

2.2 Umumta'lim maktablari 7-sinfida jahon musiqa madaniyatini pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 - ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda xurfiylik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muxabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya xam tabiat va inson uzviyligini anglab etadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini xurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy Kadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda to'tgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning echimi qaysi darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq?

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq xolda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan xolda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni: Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, «pedagogik texnologiya» tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda xam bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda

ko'pdir. Pedagogik nashrlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi", "ma'lumot texnologiyasi" va xokazo.

O'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

Pedagogik texnologiya esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi - pedagogik jarayon - o'quvchi(talaba)" funktsional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida ko'riladi.

Xozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy xujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya" "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" iboralari keng qo'llanilmoqda. Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorligi oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik xamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir.

Masalan, ko'p xollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy va murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunki murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'la anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro'y beruvchi vaziyatlarda xam yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oladigan malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik asosda tashkil etishni taqozo qiladi

Ayni vaqtda ijtimoiy hayotga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish malakalari aynan pedagogik texnologiya imkoniyatlari bilan bog'liq.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning

yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi- oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi maqsad sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni engib o'tadi. Bu to'siqlarni engib o'tish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi.

Maqsadga etishda qo'llaniladigan usullar tizimini uslub (yo'l) deyiladi. Usullarni ma'lum bir uslubda qo'llanish jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, kishi maqsadga etish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Har bir shaxsni, ijtimoiy guruhni va butun jamiyatni eng umumiy, umumiy va xususiy maqsadlari bo'ladi, inchunun ularning eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjud.

Har bir sohada mavjud maqsad ko'rsatkichlari bilan faqat shu sohada hukm suruvchi qonuniyatlar shu sohada faoliyat ko'rsatuvchilar uchun umumiy metodologik asos hisoblanadi.

Muayyan faoliyatning eng umumiy, umumiy maqsad ko'rsatkichlari va qonuniyatlari bilan birga shu faoliyatning ichida qisqa muddatli maqsad ko'rsatkichlari va tarmoq qonuniyatlari ham bo'ladi. Ularga amal qilish xususiy metodologiya deyiladi.

Maqsad va uning ko'rsatkichlari aniq bo'lgandan keyin, unga etishish usullari tizimi izlab topiladi va harakat boshlanadi. SHunda maqsad ko'rsatkichlari bilan harakat paytida o'z mavjudligini namoyon qiluvchi qonunlar yig'indisi ushbu faoliyatning metodologik asosini ya'ni amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar majmuini tashkil qiladi.

Bir mashg'ulot jarayonida bir qancha pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Xususan universal pedagogik texnologiyasi ma'ruza darslar uchun ularni tashkillashtirishda qulay hisoblanadi.

“Universal” pedagogik texnologiyasida dars jarayoni kichik guruhlariga

ajratilgan xolda o'tkaziladi. Birinchi navbatda guruhlardagi o'quvchilar o'z xohishiga ko'ra emas, oldindan tayyorlangan kartochkalar asosida kichik guruhlariga bo'linadilar. Keyin o'qituvchi tomonidan tayyorlangan va har bir guruh uchun ajratilgan ma'ruza matni tarqatiladi. Unda o'quvchilar qisqa vaqt ichida mavzuning ajratilgan qismini o'rganishlari, ma'ruzadagi 10-15 tayanch so'zlarni yozib olishlari kerak.

1-guruh "Interval" deb nomlanadi.

2-guruh "Oktava" deb nomlanadi.

3-guruh "Akkord" deb nomlanadi.

4-guruh "Lad" deb nomlanadi.

1-guruh "Interval" deb nomlangan guruhga quyidagi matn beriladi.

Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar etib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Bu bosqichlar quyidagi nomlar bilan yuritiladi:

Qadimgi davr musiqa madaniyati. O'rta asrlar musiqa madaniyati.

Uyg'onish davri musiqa madaniyati. Ma'rifatparvarlik davri musiqa madaniyati (XVIII asr). XIX asr musiqa madaniyati. XX asr musiqa madaniyati.

Har bir davr musiqa madaniyatining o'ziga xos jihatlari bor. Masalan, eramizdan avvalgi asrlardan to V asrga qadar davom etgan musiqa madaniyati asosan monodik (ya'ni bir ovozli) ko'rinishda bo'lgan. Bu davrda musiqa asosan Misr, Xitoy, Hindiston kabi qadimgi Sharq mamlakatlarida, keyinroq esa, qadimgi Yunonistonda ham o'tkazilgan turli marosimlarda ishlatilgan. Bunda ud va arfasimon torli-chertma, sibizg'a singari puflama hamda xilma-xil zarbli-urma cholg'ular keng qollanilgan.

V asrdan to XIV asrgacha davom etgan (ya'ni qadimgi dunyo bilan yangi tarix oralig'idagi davr) G'arbiy Evropa mamlakatlarida musiqaning rivoji asosan cherkov musiqa, ko'p ovozli (polifonik) uslubi qaror topti. Shuningdek, katolik cherkovlarida organ cholg'usi ham keng qo'llanila boshlandi.

Sharq mamlakatlarida esa, aksincha, monodik uslub o'z kuchini saqlab qoldi. Musulmon olamida maqom san'ati yoyildi. Sozandalik va xonandalik san'ati

rivojlandi.

XIV—XVI asrlar musiqa madaniyati jahon tarixida ko‘proq “uyg‘onish davri” (renessans) nomi bilan mashhur Italiyada opera janri yuzaga keldi va rivojlana boshladi.

XVIII asr Evropa musiqa madaniyatida jahonga mashhur “Vena klassik maktabi” shakllandi. Avstriyaning poytaxti Vena shahrida avstriya, olmon, vengr, italyan, slavyan va boshqa xalqlarning inoq hayotini ko‘rish hamda ularning milliy ohanglarini tinglash mumkin edi.

Tarixda “Vena klassik maktabi” nomi bilan ham shuhrat topgan bu ijodiy maktab an‘analari dastlab Yozef Gaydn (1732— 1809) va Volfgang Amadey Motsart (1756—1791) musiqa asarlarida qaror topib, keyinchalik ularning yosh zamondoshi Lyundvig van Betxoven (1770—1827) tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Vena klassik maktabi namoyandalaridan Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Motsart qirq bitta, L.Betxoven esa to‘qqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan.

Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san‘atini ham sermazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bunga V.A.Motsartning “Figaroning uylanishi”, “Sehrli nay”, “Don Juan”. Betxovenning “Fidelio” operalari yorqin nomunalardir.

XIX - XX asrga kelib Evropa mamlakatlarida kompozitorlik ijodiyoti yanada keng yoyildi, jahonga dong‘i ketgan mumtoz milliy maktablar (masalan, rus, polyak, chex, norveg, vengr va b.) yuzaga keldi, romantizm badiiy yo‘nalishi qaror topdi.

XX asr davomida O‘zbekiston musiqa madaniyatida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunda xalq musiqasi, an‘naviy kasbiy musiqa rivoji bilan birga yana ko‘povozli musiqaga mansub opera, sinifoniya, balet, oratoriya, xor, sonata, kinomusiqa, estrada kabi janrlar ham yuzaga kela boshlaganligi ko‘zga tashlanadi.

2-guruh “Oktava” deb nomlangan guruhga quyidagi matn beriladi.

Evropa cholg‘u musiqasi tarixdan ma‘lumki, vokal musiqadan keyin rivoj topgan. Asrlar davomida cholg‘u musiqa xizmat qilish xususiyatini saqlab kelgan,

cholgʻu musiqa turli hayotiy hodisalarda etakchi boʻlib, tantanali vaziyatlar, motam marosimlarda, shahar va saroy bazmlarida va ovga chiqishlarda etakchilik qilgan. Gitara, lyutnya va mandolina cholgʻusi klassik cholgʻu musiqa rivojida katta ahamiyat kasb etgan. XVIII asrga kelib syuita janri rivoj topgan, ariya p'esa janrlari shakllangan. Keyinchalik XIX asrgaqadar insonning ichki kechinmalarini chuqur ifodalash uchun "kuysiz qo'shiq" janri kompozitorlar ijodidan o'rin egallagan.

Ma'lumki, XVIII asr italyan operasida uvertyura "simfoniya" deb atalar edi. Xuddi shu Sammartinining o'zi dastlab uvertyurani operadan ajratdi va uch qismdan iborat tuzilishni saqlab qolib, uni mustaqil janrga aylantirdi.

A.Vivaldi, J.Tartini, L.Lokatelli, F.Jeminyani ijodi sonata va skripka kontserti sohasida sonatali-simfoniksikl shakllanishiga zamin yaratdi. L.Bokkerini violonchel kontserti va kamer cholgʻu ansambli sohasida birmuncha keyinroq juda katta rol o'ynadi.

XVIII asr italyan kompozitorlariga munosib baho berilar ekan, cholgʻu musiqasi chex, nemis va avstriyalik ustodlarning ijodida yuksalib, o'zining ravnaqiga etgan, deb ko'rsatib o'tish kerak.

XVIII asrning 30-40 yillaridayoq cholgʻu musiqasi tarixida yangi davr boshlandi, bu davr voqelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirishning progressiv metodi bo'lmish simfonizm qaror topishi bilan tugallandi. Yangidan-yangi shakl va janrlar paydo bo'lib boradi. Bularning shakllanish jarayonlari turli Evropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi.

XVIII asr italyan kompozitorlariga munosib baho berilar ekan, cholgʻu musiqasi chex, nemis va avstriyalik ustodlarning ijodida yuksalib, o'zining ravnaqiga etgan, deb ko'rsatib o'tish kerak.

Badiiyat sohasidagi eng yirik ustozlar Motsartning qanday ahamiyatga ega ekanligini juda yaxshi tushunishar edilar

Motsart butun ijodiy umrining deyarli boshidan oxirigacha operalar yozdi. Uning ilk operalari 11-12 yoshida "Mitridat, 14 yoshida Pontiya shohi" so'nggi – "Suhrlil fleyta" operasi vafot etgan yili yozilgan.

Keyingi yillar davomida musiqa san'ati Motsart musiqasidan obi hayot olib turdi. List "Figaroning uylanishi" va "Don-Juan" operalari mavzulariga mashhur fortepiano parafrazalarini yozdi. Rixard Shtraus bilan Gustav Maler ham Motsart an'alarini chetlab o'tishgan emas.

Motsartning chet el musiqasidagi roliga har qancha baho berilsa ham ortiqcha bo'lmas. Betxoven ijodi Vena klassik maktabi yo'lida rivojlanib bordi va xiyla darajada Motsart ta'sirini sezdi. Shubert-siymosida mujassam topgan.

3-guruh "Akkord" deb nomlangan guruhga quyidagi matn beriladi.

Evropa cholg'u musiqasi tarixdan ma'lumki, vokal musiqadan keyin rivoj topgan. Lyutnya, gitara va mandolina cholg'usi klassik cholg'u musiqa rivojida katta ahamiyat kasb etgan. XVIII asrga kelib syuita janri rivoj topgan, ariya p'esa janrlari shakllangan. Keyinchalik XIX asrga qadar insonning ichki kechinmalarini chuqur ifodalash uchun "kuysiz qo'shiq" janri kompozitorlar ijodidan o'rin egallagan.

Fortepiano uchun 48 ta "kuysiz qo'shiq" yaratgan kompozitor Mendelson bo'lib ular turli nomlar bilan nomldanadi. "Alla", "Bahor", "Charx", "Venetsiya gondelerining qo'shig'i"¹⁷.

Bu janrda keyinchalik P.Chaykovskiy ham "Yil fasllari" to'plamini yaratgan. Bu bir qismli p'esalar nafaqat kollejlar, musiqa maktablar yoki oliy dargohlarda ijrochilari repertuarlaridan o'rin egallab turli kontsert va ko'rik-tanlovlarda ijro etiladi.

Cholg'u musiqaga oid Shopen, Shuman, Grigning "Alla"larini, Shopen, F.List, P.Chaykovskiyning gondeler- (kemachi) qo'shiqlarini aytib o'tish mumkin.

Serenada – cholg'u asar bo'lib, ochiq osmon ostida ijro etiladi. XVIII asrda engil lirik kayfiyatdagi siklli asarlarni – serenada deyishgan. Gaydn, Motsart, Betxoven shu janrda ijod qilishgan.

Ballada – dramatik va qahramoniy xarakterga ega cholg'u asar. Bu cholg'u janr asoschisi F.Shopen. Uning 4 ta balladasi dunyo musiqa durdonalari hisoblanadi. Shopendan keyin fortepiano balladasi janrija F.List, I.Brams,

¹⁷ Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976 27-bet

A.Dvorjak murojaat etganlar.

Mashhur skripkachi N.Paganini etudlaridan “Ov”, “Kampinella”, “Qo‘ng‘iroqchalar” bo‘lib, ularni Paganini “kapriz” deb nomlagan.

XVIII asrda cholg‘u musiqasining yangi janrlari va shakllari yaratildi. Siklli miniatura cholg‘u p’esalar janri o‘z tarkibiga umumlashtirilgan poetik fikrni olib boruvchi asarlar asosida yaratilgan. Ko‘rsatilib o‘tilgan janrlar betakror asar bo‘lib, cholg‘u musiqaga xos bo‘lgan tarkibni yanada boyitdi va jahon musiqa madaniyatida betakror o‘rin egalladi.

4-guruh “Lad” deb nomlangan guruhga quyidagi matn beriladi.

XX asr davomida O‘zbekiston musiqa madaniyatida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunda xalq musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa rivoji bilan birga yana ko‘povozli musiqaga mansub opera, sinifoniya, balet, oratoriya, xor, sonata, kinomusiqa, estrada kabi janrlar ham yuzaga kela boshlaganligi ko‘zga tashlanadi.

Ayni paytda, Respublikada musiqiy ta’limning evropacha usuliga asoslangan maxsus o‘quv yurtlari, Toshkent Davlat konservatoriyasi ochilganligini, shuningdek, musiqali drama va komediya, opera va balet asarlarini sahnalashtirishga mo‘ljallangan teatr truppalari tashkil topganligini ko‘ramiz.

Shu bilan birga, ko‘p asrlik tarixga ega an’anaviy bastakorlik jabhasida yangi jihatlar namoyon bo‘ladi, musiqiy ijodkorlikning “evropacha” ko‘rinishi bo‘lgan kompozitorlik sohasi esa jadal sur‘atlarda shakllana boshlaydi.

O‘zbek musiqasining XX asrdagi rivojida bastakorlik ijodiyoti alohida o‘rin tutadi. Bastakorlar, odatda, mohir sozanda, etuk xonanda bo‘lib, an’anaviy musiqa turlari bo‘lgan ashula, katta ashula, suvora, maqom, kuy kabi janrlarda ijod qilib kelganlar. Buni ham elga tanitganlar. Xalqimizning sevimli san’alkorlari bo‘lgan Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Muhammadjon Mirzaev, Faxriddin Sodiqov mahoratli ijrochilar hamdir.

XX asr mobaynida o‘zbek bastakorlari milliy musiqamizning janrlar doirasini yangi namunalar bilan kengaytirishga ham o‘z hissalarini qo‘shdilar. To‘xtasin Jalilov (1996—1966) Respublikamizda musiqali drama janri shakllanib,

rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Jumladan, atoqli san'atkor "Halima", "Gulsara", "Nurxon", "Tohir va Zuhra", "Ravshan va Zulxumor", "Alpomish" kabi sahna asarlariga ajoyib musiqa namunalarini ijod etgan.

Ma'luniki, simfoniya, opera, balet, oratoriya, xor kabi janrlarda ijod qiluvchi musiqachilarni "kompozitor" deb yuritishadi. Dastlab G'arbiy Evropada qaror topgan kompozitorlikka xos musiqiy janrlar va ijodkorlik an'alarining O'zbekiston madaniyatiga kirib kelishida rus san'atkorlarining xizmati katta bo'lgan. Bu jarayonda kompozitorlar xalq musiqa boyliklariga tayangan holda musiqali drama, opera, simfoniya, kinomusiqa va boshqa asarlar yaratishga intilganlar.

V.Uspenskiy simfonik orkestri uchun "Chetire melodii narodov sredney Azii" syuitasini, A.Kozlovskiy "Lola" syuitasi va "Tanovar" baletini. R.Glier "Farg'ona bayrami" simfonik uverturasini ijod etgan. O'zbek kompozitorlari — Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Doni Zokirov, Sulaymon Yudakov, Manas Leviev, Sayfi Jalil, Ikrom Akbarov, Mirsodiq Tojiev kabi o'zbek kompozitorlari tomonidan ijodiy davom ettirildi.

Shuni ham aytish kerakki, dastlabki davrlarda musiqali drama va ayniqsa opera kabi murakkab janrlarni o'zlashtirishda kompozitorlar ijodiy hamkorlik ham qilganlar. Jumladan, 1939-yili sahnalashtirilgan ilk o'zbek operasi "Bo'ron" M.Ashrafiy va S.Vasilenko hammuallifligida. 1940-yili sahna yuzini ko'rgan "Layli va Majnun" operasi esa R.Glier va T.Sodiqovlarning hamkorligi natijasida yuzaga kelgan edi.

O'zbek kompozitorlarining musiqaviy sahna janrlarini o'zlashtirish borasida keyingi yillarda olib borgan faoliyatlari anchagina e'tiborli bo'lgan. Xususan, M.Ashrafiyning "Dilorom", S.Yudakovning "Maysaraning ishi", S.Boboevning "Hamza", I.Akbarovning "So'g'd elining qoplani", R.Hamroevning "Zulmatdan ziyo", S.Jalilning "Zebunniso" operalarida shunday natijalarni ko'rish mumkin.

Har bir guruh o'ziga berilgan matnni o'rganib chiqqandan keyin, guruhlarda etakchi o'quvchi saylanadi va u o'zi guruhi yordamida matnni so'zlab beradi, unga 3 daqiqa beriladi. Shuningdek har bir guruh ham matn mazmunini so'zlab

berishlari kerak. Etakchilar mavzuning umumiy shaklini yaratishda katta ahamiyat kasb etigshadi, chunki har bir etakchi o'zidan boshqa guruhda mavzuni yozib olgan qisqacha ma'lumotlar asosida navbatdagi guruhga o'quvchi tilidan tushintiriladi. Shu asnoda etakchilar bir biriga rahbarligidagi guruhga ma'lumotni etkazishadi.

O'qituvchi bu jarayonda ishtirok etmaydi, u faqat nazorat etadi. Shu tariqa o'quvchilar o'zlari mavzuni o'zlashtirib olishadi.

IKKINCHI BOB YUZASIDAN XULOSA

Evropa cholg'u musiqasi tarixdan ma'lumki, vokal musiqadan keyin rivoj topgan. Lyutnya, gitara va mandolina cholg'usi klassik cholg'u musiqasi rivojida katta ahamiyat kasb etgan. XVIII asrga kelib syuita janri rivoj topgan, ariya p'esa janrlari shakllangan. Keyinchalik XIX asrga qadar insonning ichki kechinmalarini chuqur ifodalash uchun "kuysiz qo'shiq" janri kompozitorlar ijodidan o'rin egallagan.

Fortepiano uchun 48 ta "kuysiz qo'shiq" yaratgan kompozitor Mendelson bo'lib ular turli nomlar bilan nomldanadi. "Alla", "Bahor", "Charx", "Venetsiya gondelerining qo'shig'i"¹⁸.

Bu janrda keyinchalik P.Chaykovskiy ham "Yil fasllari" to'plamini yaratgan. Bu bir qismli p'esalar nafaqat kollejlar, musiqa maktablar yoki oliy dargohlarda ijrochilari repertuarlaridan o'rin egallab turli kontsert va ko'rik-tanlovlarda ijro etiladi.

"Yil fasllari" deb nomlangan bir qismli cholg'u asarlari to'plamida "Boychechak", "Xirmon yig'uvchi qo'shig'i", "Kuz qo'shig'i", "Qushcha qo'shig'i" kabi nomlangan p'esalar bor. Shunga o'xshash asarlardan S.Raxmaninovning "Melodiya" asarini aytish mumkin.

Cholg'u musiqaga oid Shopen, Shuman, Griyning "Alla"larini, Shopen, F.List, P.Chaykovskiyning gondeler- (kemachi) qo'shiqlarini aytib o'tish mumkin.

Vena klassik maktabi etuk simfonizmining asosiy uslublari shakllanishi

¹⁸ Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976 27-bet

jarayonida Gaydn endi muhim xalqa bo'lib qolgan davrga taalluqlidir. Motsartning barcha simfoniyalari mavjud bo'lgan, yosh Betxoven esa fortepiano sonatalari va kamer ansambllarida o'z simfonik tafakkuri printsiplarini ishlab chiqib, Birinchi simfoniyasini yaratishga yaqinlashib qolgan chog'da Gaydnning keyingi simfoniyalari yozilgan. Shunday qilib, Gaydn simfoniyalari ulug' kompozitor ijodiy yo'lini o'rganish uchungina emas, balki umuman, XVIII asr klassik simfonizmining shakllanish va rivojlanish jarayonini tushunib olish uchun ham diqqatga sazovordir.

Bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy va murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunki murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'la anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro'y beruvchi vaziyatlarda xam yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oladigan malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik asosda tashkil etishni taqozo qiladi

Ayni vaqtda ijtimoiy hayotga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish malakalari aynan pedagogik texnologiya imkoniyatlari bilan bog'liq.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

UMUMIY XULOSA

Ta'lim-tarbiya jarayonining bosh yo'nalishi hozirgi davrda musiqiy fanlarni o'qitish yuzasidan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilgan. Barcha fanlarning uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlari, xususan, o'rta maxsus ta'limda o'z yo'nalishlari bo'yicha muntazam va uzluksiz ravishda o'qitishi ko'zda tutilgan.

XVIII asr – musiqa madaniyati tarixida eng ajoyib davrlardan biri bo'ldi. Bax va Gendel kabi jahon musiqa san'ati allomalarining ijodiy faoliyati bilan boshlangan asarning ikkinchi yarmida Gaydn, Motsart, Betxoven kabi kompozitorlar avlodi o'ziga xos yangiliklar bilan kirib keldilar. Musiqa san'atining avval o'tgan taraqqiyotining umumlashtirib bergan va uni ancha oldinga surgan bu kompozitorlar ijodi boshdan oyoq XVIII asr ijodiyoti mahsulidir.

Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Vena klassik maktabi ma'rifatchilik g'oyalari jamiki dunyoqarashlari-yu, uslub xususiyatlari va demokratik yo'nalishi bilan mahkam bog'langandir. XVIII asr Yevropa san'atiga yoyilgan ma'rifat g'oyalari turli mamlakatlar ilg'or kishilarining faoliyatida o'ziga xos aksini topdi.

Jahon musiqa tarixida, madaniyatida va namayondalari ijodida XVIII asrning 30-40 yillaridayoq yangi davr boshlandi, bu davr voqelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirishning progressiv metodi bo'lmish simfoniya va opera qaror topishi bilan tugallandi. Yangidan-yangi shakl va janrlar paydo bo'lib boradi.

Bularning shakllanish jarayonlari turli Evropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi. XIV—XVI asrlar musiqa madaniyati jahon tarixida ko'proq “uyg'onish davri” (renessans) nomi bilan mashhur. Bu davrga kelib G'arbiy va Markaziy Evropadagi mamlakatlarda antik san'atni o'rganishga, uning yuksak namunalarini qayta tiklashga bo'lgan harakatlar avj olgan edi. Aynan shu harakatlar bois Italiyada opera janri yuzaga keldi va rivojlana boshladi.

Ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvorligida o'tgan XVIII asr Evropa musiqa madaniyatida jahonga mashhur "Vena klassik maktabi" shakllandi. Vena musiqa madaniyati – turmushga oid xalq musiqasi, professional kompozitorlar musiqasi, opera musiqasining ravnaq topishi Vena klassik maktabining vujudga kelishi uchun barakali va qulay bir zamin bo'ldi, bu maktab davrning barcha ilg'or yutuqlarini yakunlab berdi va jahon musiqa san'atining qo'lga kiritgan zo'r muvaffaqiyati bo'lib qoldi.

Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilan nishonlangan yangi zamon o'z davrining ilg'or g'oyalarini olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi san'atni, yetuk ustod-kompozitorlarning maydonga chiqishini talab etdi. Adabiyot va she'riyat olamida Gyote bilan Shiller, musiqa olamida Gaydn, Motsart hamda Betxoven javlon urdi. Biroq, Betxovenning ulug'vor asarlari endi kelgusi asrga mansub bo'lib qoldi; musiqa san'atining avval o'tgan taraqqiyotini umumlashtirib bergan va uni ancha oldinga surgan Gaydn bilan Motsart ijodi boshdan-oyoq XVIII asr ijodiyoti mahsulidir.

Imkoniyat uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no mazmuni uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etilgan.

Bizning uchun fan o'qituvchisiga alohida xona, texnik vositalar (audio, video, DVD, VSD) disklar, o'quv qurollari, ko'rgazmali qurollar, cholg'u asbob kompozitor va cholg'uchilar rasmlari mavjud bo'lishi kerak. Musiqa fani o'qituvchisi yuqorida ko'rsatilgan sharoitdan kelib chiqib, o'quv yurti fonotekasini tashkil qilishi lozim.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini zamonaviy talablar darajasida o'qitish yo'lida bunday harakatlar qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib kelmoqda. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy

kechinmalarni ifoda etadi”¹⁹.


Jahon musiqa madaniyatining rivojlanish jarayonida yangi janr va shakllarni paydo bo‘lishi va bu musiqiy janrlarni shakllanish jarayonini Umumta’im maktablarining yuqori sinflarida o‘zlashtirish usullarini o‘rganish yanada kengroq va chuqurroq bilimlarni egallashga imkoniyat beradi.

¹⁹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.2008 140-141 bet

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008
 2. Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami) T.2002
 3. Abdullaev R. Opera dramaturgiyasi T., 2007
 4. Asafev B. Ob opere. L., 1976
 5. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati T.1987
 6. Akulov E. Opernaya muzika i stsenicheskoe deystvie. M., 1978
 7. Begmetov S. va boshqalar Musiqa 7-sinf uchun darslik T., 2008
 8. Vaynkop Yu., Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov. L.1976
 9. Vladimirov V., Lagutin A. Muzikalnaya literatura. M.1978
 10. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. I tom M.1985
 11. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. II tom M.1988
 12. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. III tom M.1974
 13. Druskin M. Istoriya zarubejniy muziki vip II M.1983
 14. Druskin M. Istoriya zarubejniy muziki vip III M.1982
 15. Druskin M. Istoriya zarubejniy muziki vip IV M.1984
 16. Konen V. Istoriya zarubejnoj muziki 6-izdaniya M.1984
 17. Konen V. Istoriya zarubejnoj muziki 7-izdaniya M.1989
 18. Vaynkop Yu., Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov L.1976
 19. Vladimirov V., Lagutin A. Muzikalnaya literatura M.1978
 20. Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. vip. P. M.1988
 21. Levik B. Chet el musiqasi /T.G'afurbekov tarjimasi / T.1987
 22. Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.P.M.1979
 23. Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.IV.M.1976
 24. Levik B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran. Vip.V.M.1984
 25. Levik B.V. Istoriya zarubejnoj muziki M.1966
 26. Lobanova M. Muzikalniy stil i janr M. 1990
 27. Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi T.2009
 28. Mannapov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati T., 2004
 29. Patina S.V. Iz istorii zarubejnoj muziki M.1977
 30. Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka M.1976
 31. Proxorova I. Muzikalnaya litreatura zarubejnix stran M.1987
 32. Shtern G. Instrumentalnaya muzika T.1988
 33. Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011
-
1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
 2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
 3. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
 4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
 5. [tdpu-intranet. ped](http://tdpu-intranet.ped)
 6. belkanto.ru,
 7. [www Google. ru](http://www.Google.ru)

ILOVA





Клавир, на котором играл Моцарт, будучи
в Праге в 1787 г.





Ночная серенада. Старинная гравюра.

I.S. Вах

12

ПРЕЛЮДИЯ И ФУГА ДО МИНОР

из первого тома

«Хорошо темперированного клавира»

Allegro (Быстро)

f energico

dim.

p

cresc. poco a poco

14432

СОНАТА МИ МИНОР
ЧАСТЬ I

41

Presto (Очень быстро)

The musical score is written for piano and consists of 14 measures. It begins with a piano (*p*) dynamic and a tempo marking of Presto (Очень быстро). The key signature is one flat (B-flat major/A minor). The time signature is 6/8. The score includes various musical notations such as trills (*tr*), slurs, and dynamic markings like *f* (forte), *mf* (mezzo-forte), and *cresc.* (crescendo). Fingerings are indicated by numbers 1-5. The piece concludes with a final cadence in the right hand.

14432

ЧАСТЬ II. МЕНУЭТ
(с сокращением)

The musical score is written for piano and bass. It features five systems of staves. The key signature is G major (one sharp) and the time signature is 3/4. The score includes various musical notations such as dynamics (f, p, cresc.), articulation (accents, slurs), and fingerings. The piece concludes with a double bar line.

14432

V.A. Motsart

СЕРЕНАДА (с сокращением)

Слова Л. РЕЛЬШТАБА
Перевод Н. Огарева

Mässig (Умеренно)

Голос

Песнь моя летит с мольбо-ю

Ф-п.

pp

ти- ховчас ноч-ной.

В ро-щу лег- ко-ю сто-по-ю ты приди, друг мой!

При лу-не шу-мят у-ны-ло ли-стья в по-здний час,

pp

14432

F. Schubert

ФРИДЕРИК ШОПЕН

МАЗУРКА

op. 56, № 2

Vivace (Живо)

[illegible]

ПРЕЛЮДИИ

оп. 28

№ 4

Largo (Медленно, широко)

pespressivo

stretto

dim. *p*

smorz. *pp*

14432